

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası

ERGASHEV BEKZODNING

5120100 – filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun yozgan

**“ISTIQLOL DAVRI NASRIDA URUSH MAVZUSINING ISHLANISHI”
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Rahbar: O.Fayzullayeva
filologiya fanlari nomzodi, dotsent**

Guliston – 2020

REJA:

KIRISH

**I BOB. ISTIQLOL DAVRI HIKOYALARIDA URUSH MAVZUSI
TALQINI MASALASI**

- 1.1. Istiqlol davri hikoyalarida urush mavzusining aks ettirilishi
- 1.2. Urush mavzusidagi hikoyalar badiiyati

II BOB. URUSH MAVZUSI AKS ETGAN NASRIY ASARLAR BADIYATI

- 2.1. Nasriy asarlarda psixologik tasvir masalasi
- 2.2. Urush mavzusidagi hikoyalarda qahramon va sharoit talqini
- 2.3. Personajlar talqinida mahorat masalasi

XULOSA

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbek adabiyoti tarixida urush mavzusi aks etgan epik asarlar salmoqli darajada. Bunga urush kabi foje mavzuning insonlar turmush tarzi va ruhiyatiga ta’siri kuchli ekanligi, shuningdek, ushbu mavzudagi asarlar bunday noo‘rin jarayonning foje oqibatlarini ko‘rsatishi oqibatida insonlarda unga nisbatan nafrat tuyg‘usini shakllantirish, insonlarda yashayotgan tinch kunlarining qadriga etishlari, shukronalik tuyg‘usini shakllantirish kabi maqsadlar uchun xizmat qilishi ayon holat. Ushbu mavzu o‘z shakli va mazmuniga ega bo‘lganligidan ushbu mavzuni to‘laqonli o‘rganishga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Bunga uzbek nasrida yaratilgan ko‘p sonli epik asarlar va ular orasida saviya jihatidan o‘ziga xos bahoga ega asarlar ham mavjudligini asos sifatida keltirish mumkin. Urush mavzusidagi asarlarning milliy adabiyotimiz shakllanishidagi o‘rnini xisobga olib, ularni ham badiiy adabiyot namunasi yoki milliy adabiyot qadriyat sifatida o‘rganish maqsadga muvofiq ekanligini ta’kidlab o‘tish joiz. Mafkuraviy yakkahokimlikdan qutilgan o‘zbek adabiyotida erkin ijod qilish, erkin fikr asosida mavjud jarayonga munosabat bildirish kuchayib bormoqda. Shuningdek, o‘tayotgan davrda mafkuraviy etuklikka erishish uchun ham yoshlar ongida millat qahramonlariga e’tirof va hurmat tuyg‘ularini shakllantirish bugungi kun badiiy adabiyotining muhim vazifalaridan bo‘lib qolmoqda.

Nasriy asarlarda ifoda etiladigan teran fikr, inson qalbi kechinmalari tasviri, ruhiyat tahlilining o‘ziga xosligi, kechinma va voqelik masalalarini teran idrok etgan va bu yo‘lda o‘z yo‘nalishlariga ega bo‘lgan yozuvchilarimiz mavjudligi quvonarli hol. Urush mavzuning ishlanishi masalasi, ayniqsa, turli cheklovlardan holi bo‘lgan davr bo‘lgan mustaqillik yillarida o‘ziga xos tarzda taraqqiy etdi. Adabiyotimizda «urush odamlari» obrazlari birin-ketin bo‘y cho‘za bordi.

Ma’lumki, urush mavzusida ko‘plab mahoratli adiblarimiz qalam tebratganlar. Ular qatorida Abdulla Qahhor, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, O‘tkir Hoshimov kabi zabardast adiblarimiz ham bor. Ularning urush mavzudagi

asarlari haqida shu kungacha ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan. Lekin istiqlool davrida yaratilgan urush mavzusidagi epik asarlar xususida alohida, jiddiy bir tadqiqot ishi yaratilmaganligi ushbu BMI ning dolzarb mavzuda ekanligini asoslaydi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek adabiyotshunosligida urush mavzusidagi asarlar xususida anchagina ishlar amalga oshirilgan. Urush mavzusidagi asarlarining g‘oyaviy-mazmuniy jihatidan tahlil etilishi, qissa, hikoya va romanlardagi obrazlar, ularning mohiyati tanqidchilar tomonidan keng o‘rganilgan. Bu borada, ayniqsa, O.Sharafiddinov¹, U.Normatov², U.O‘ljaboev³, H.Karimov⁴ va boshqa⁵ adabiyotshunos, munaqqidlarning xizmatlari beqiyos. Shuningdek, B.Nazarovning «G‘afur G‘ulom olami»⁶, U.O‘ljaboevning «Zamon talabi va ijodkor mas’ulligi»⁷, «G‘afur G‘ulom va davr»⁸ to‘plami, B.Sayimovning “Ulug’ Vatan urushi davri o‘zbek adabiyotining janr xususiyatlari”⁹ kabi monografiyalar va to‘plamlari shular jumlasidan Mazkur olimlarning sa’y-harakati bilan urush mavzusidagi asarlarining g‘oyaviy-badiiy qimmatini, estetik ahamiyati hamda yozuvchilarning o‘zbek nasrida tutgan o‘rni o‘ziga xos tarzda o‘z bahosini topdi. Ularning shaxsi keng kitobxonlar ommasiga tanishtirilgan.

Adabiyotshunosligimizdagi mazkur tadqiqotlarda yozuvchilarning urush mavzusidagi asarlar yaratishdagi mahorati masalasi, ijodkorlar erishgan yutuqlari, adabiyotga qo‘shgan yangiliklari, asarlariga tanqidchilarning o‘ziga xos munosabatlari ko‘rib chiqilgan.

¹ Шарафиддинов О. Биринчи мўъжиза. – Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1979. - 438 б.

Шарафиддинов О.Истеъдод жилолари. – Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1976. - 229 б.

² Норматов У. Етуклик. –Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982 й, -368 б.

³ Ўлжабоев У. Мардлик ва матонат тасвири. – Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1976. - 148 б.

⁴ Каримов Ҳақимжон. Ижод ва истеъдод. /Адабий портретлар. – Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1985. 125-б.

⁵ Н.Каримов ва бошқалар. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Т: Ўқитувчи, 1999, - Б.407.

⁶ Назаров Б. Ғафур Ғулом олами. – Тошкент, “Ўзбекистон” нашриёти, 2004. 180 б.

⁷ Ўлжабоев У. Ғафур Ғулом./Замон талаби ва ижодкор масъуллиги. – Тошкент, “Ўзбекистон” нашриёти, 2012. 376 б.

⁸ Ғафур Ғулом ва давр. Тўплам. – Тошкент, Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти.2004. 112 б.

⁹ Б.Сайимов. Улуғ Ватан уруши даври ўзбек адабиётининг жанр хусусиятлари. Фан, 1984. 150б.

Mazkur tadqiqot urush mavzusidagi asarlarning yaratilishiga sabab bo'lgan yozuvchilarning o'ziga xos uslubi bilan bog'liq jihatlar, ularning ijodiy qiyofasi, qahramonlar ruhiyatining betakror ifodalari, tarixiy hikoyalardagi badiiy to'qimaning o'rnini tadqiq etish orqali amalga oshirilishi zarurligini ko'rsatuvchi omillardandir.

BMIning maqsadi va vazifalari. Ushbu BMIning asosiy maqsadi XXI asr o'zbek nasri taraqqiyotiga qisman nazar tashlash va uning o'ziga xos jihatlari, qahramonlar talqinini va poetikasini yozuvchilarning urush mavzusida yozgan asarlari misolida ko'rib chiqish. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish mo'ljallangan:

- urush mavzusidagi asarlarni tahlil qilish orqali qahramon yaratishdagi individuallik masalasiga e'tibor qaratish;
- bosh qahramon tavsifida asarlar badiiyatining o'rnini aniqlash;
- asarlarda badiiylik komponentlarining qo'llanilishi va yozuvchi g'oyaviy maqsadini tadqiq etish;
- bosh qahramonlar xarakterlari talqinida yozuvchi mahoratini asoslovchi badiiy unsurlarni aniqlashtirish kabilardan iborat.

Bunda kompozitsiya, syujetga xos bo'lgan vosita va unsurlarning qo'llanilishi, badiiy detal masalasi tadqiqi ham nazarda tutiladi.

Ishdagi ilmiy yangiliklar va erishilgan natijalar. Mazkur bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi shundaki, bu ishda istiqlol davrida yaratilgan adabiyotshunoslar tomonidan to'laqonli baholanmagan urush mavzusidagi hikoyalarda yozuvchi mahorati masalasi atroflicha o'rganishga harakat qilingan. Urush mavzusidagi asarlardagi obrazlar talqiniga ham o'ziga xos yondoshilgan. Chunki bu muammo yuzasidan ham hozirgi talablar asosida yaratilgan yirik monografik shakldagi tadqiqotlar kam deyish mumkin. BMIda yozuvchilar mahorati masalasi ham asosiy muammo sifatida qo'yilgan va bunda asarlarning badiiy jihatini o'rganish ham nazarda tutilgan.

BMI dan erishilgan natija asosan urush mavzusida yozilgan hikoyalardagi badiiyat masalasini imkon darajasida to'laqonli ravishda o'rganilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning predmeti va metodologik asosi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning istiqlol mafkurasi, milliy g'oya va madaniy qadriyatlar haqidagi qarashlari tadqiqotning metodologik asoslarini tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishi o'zbek va xorijiy adabiyotshunoslik fani erishgan yutuqlarga asoslanadi. Adabiy merosimizning yirik tadqiqotchilari I.Sulton, O.Sharafiddinov, N.Karimov, U.Normatov, D.Quronov, I.G'ofurov, U.O'ljaboev, H.Karimov kabi olimlarning nazariy qarashlariga suyanib tadqiq etildi.

Ishning amaliy ahamiyati. Mazkur ish urush mavzusidagi asarlarda yozuvchilik mahoratini o'rganish boshqa tadqiqotlardan yaxlit holda tahlil etilgani bilan ajralib turadi. Chunki ushbu muammo hali hozirgi talablardan kelib chiqqan holda adabiyotshunoslikda to'laqonli va yaxlit holda o'rganilmagan. Ushbu tadqiqotdan urush mavzusidagi asarlar badiiy xususiyatlari bo'yicha BMI va kurs ishlar yozishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning tuzilishi. Mazkur BMI kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. ISTIQLOL DAVRI HIKOYALARIDA URUSH MAVZUSI TALQINI MASALASI

1.1. Istiqlol davri hikoyalarida urush mavzusining aks ettirilishi

Ma'lumki, istiqlol davri o'zbek adabiyoti ko'lamdorligi va mavzular rang-barangligi bilan ajralib turadi. Bu davrda yaratilgan epik asarlar o'z davri muammolari talqini bilan bir qatorda ushbu davrdagi tinchlikning qadriga etishga da'vat qiluvchi urush mavzusidagi asarlar yaratilganligi bilan ham ajralib turadi. Bunda hikoyachilikning o'rni alohida.

“Hikoya, novella (italyancha novella – yangilik) – inson hayotidagi u yoxud bu yorqin hodisani, ijtimoiy yoxud psixologik konfliktni xarakter bilan uzviy bog'liq holda rivoyaviy usulda tasvirlovchi kichik epik asar. Hikoya yoki novella – epik turning kichik janri. Bu asar odatda. Kishi hayotidagi g'oyatda muhim voqea tasviriga bag'ishlanadi. Va unda shu voqeaga qadar va undan so'ng ro'y beradigan voqealar batafsil bayon qilinmaydi”¹⁰. Ko'rinadiki, hikoya janri o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra ixcham hajmli va hayotning ayrim ko'rinishini, qahramon hayotidagi birgina muhim voqelikni qamrab olishi bilan ajralib turadi.

Hikoyaning o'ziga xos ayrim xususiyatlari mavjudligi haqida nazariy manbalarda turlicha ma'lumotlarga duch kelish mumkin. Xususan, uning inson hayotidagi alohida bir voqea asosiga qurilishi, unda epik asarga xos syujet unsurlarining barchasini topish mumkin ekanligi, ya'ni, ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, voqealar rivoji va echimlar shular jumlasidandir. Shuningdek, hikoya asosida insonning murakkab taqdiri yashiringanligi, dramatik vaziyatlar seroblighi va xokazolarni aytib o'tish joiz.

“Lakonizm – hikoyada tasvir mezoni”¹¹. Ya'ni hikoya boshqa janrlardan rivoyaning qisqaligi bilan ajralib turadi. Ushbu janrda ijodkorlarning so'z qo'llash mahorati yana bir bor sinaladi. Chunki g'oyaviy maqsadni amalga oshirishda hikoya janridan foydalanishni maqsad qilgan yozuvchilar mahorat borasida

¹⁰ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент. Ўзбекистон, 2002. 470-бет.

¹¹ Ўша китоб, 472-бет.

o‘zlarini namoyon qiladilar. Mana shunday adiblarimiz qatorida Nazar Eshonqul, Isajon Sulton, Ulug‘bek Hamdam, Erkin A‘zamlar ham bor bo‘lib ularning hikoyanavislik mahorati XXI asr o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Urush mavzusi she‘riyatida alohida o‘rin egallashi barchaga ma‘lum. Urushning oddiy xalq hayotidagi o‘rni, uning keltirib chiqargan oqibatlari urush fojealari umumlashma tarzida namoyon bo‘lgan.

Ijodkorlarning urushga, uning xalq boshiga keltiradigan jabru-jafolariga munosabati nafaqat she‘riyati orqali, balki nasriy asarlari orqali ham ifodalangan. Nasrda adib urush va oddiy xalq hayotini uyg‘un holatda tasvirlaydi. Ya‘ni inson xarakterini urush holati bilan bog‘liq holda tasvirlaydi. Ko‘p holatda xulosani kitobxonning o‘zi chiqarishiga havola qiladi.

Urush mavzusi hamma zamonlarda ham dolzarbligini yo‘qotmaydigan mavzulardan. Chunki tinchlikning qadriga etish uchun urushning xalq boshiga keltiradigan fojealaridan boxabar bo‘lib, uni esga olish bilan birga, buning dahshatlarini yosh avlodga ham etkazish dolzarb masalalardan birligicha qolaveradi.

Istiqlol davri o‘zbek hikoyachiligida urush mavzusida qalam tebratgan adiblarimizdan biri Isajon Sulton bo‘lib, uning qalamiga mansub “TODD” hikoyasidir. Ushbu hikoya yozuvchi o‘zi o‘z ko‘zi bilan ko‘rmagan urush voqeligi haqida yaratilgan o‘ziga xos saviyali hikoyalardan biri deyishimizga asos vazifasini o‘taydi.

Ikkinchi jahon urushi mavzusida ko‘plab asarlar yaratilgan. Ularda o‘zbek xalqining bu davrdagi hayot tarzi, jasoratlari, front orti hayoti, urushning insonlar taqdiriga salbiy ta‘siri kabi jihatlar yoritilgan.

Isajon Sultonning “TODD” hikoyasida ham urush bo‘layotgan hudud, ham konslager hayoti, ham urushdan keyingi tinch hayot shakllari birdek aks ettirilgan. Hikoyaning bosh qahramoni Mamasiddiq pishiq degan kishi bo‘lib, uning bu uch jabhadagi hayot tarzi va boshidan kechirganlari hikoyaning asosiy mazmunini tashkil etgan.

Hikoya kompozitsion jihatdan o‘ziga xos tarzda shakllantirilgan. Unda hikoyachilik vazifasini o‘rni bilan muallif va Mamasiddiq pishiqning katta o‘g‘li hikoyasi tarzda amalga oshiriladi. Mamasiddiq pishiqning urushdagi hayoti haqidagi asosiy hikoya o‘g‘li tilidan aytiladi.

Unga ko‘ra otasi 22 yoshida urushga ketgan chog‘ida bular uch farzand va onasi yolg‘iz qolishadi. Ona vafotidan so‘ng ammasining qaramog‘ida qolishadi. Mamasiddiq pishiq esa qirq uchinchi yil asirga tushib, ko‘p sonli asirlar qatorida Polshaga jo‘natiladi. Kontslagerda Vilgelm Todd degan mal‘un ofitser nemis askarlari o‘rtasida uzoq masofaga yugurish bo‘yicha trener vazifasini bajarganligi uchun tarki odat amri mahol deganidek, harbiy asirlarni ham har kuni qirq chaqirim masofaga yugurtirar ekan. Tong sahardan yugurishga olib chiqilgan askarlar soat ettigacha marra bo‘lgan tosh kar‘eriga etib borishlari shart bo‘lgan. Toddning o‘zi orqadan mashinada kuzatib borib, kim orqada qolib ketsa uni o‘z qo‘llari bilan otib tashlar ekanligi xususida otasi hikoya qilib berganligini aytadi.

Marraga etib kelganlarga Toddning aytadigan gaplari asarning asosiy mazmunini va mohiyatini anglatadi: “Senlar meni yomon ko‘rasanlar, bilaman. Ammo, hayot mendan ko‘ra beshafqatroq, senlarning bu yugurishingdan ko‘ra milyon marta murakkabroq. U senga marra qaydaligini aytmaydi, qay tarafga qarab chopishni, qancha chaqirim yugurishing kerakligini ko‘rsatmaydi, dam bermaydi. Barini o‘zing topasan, o‘zing hal qilasan... Bugun senlar marraga yiqilmay etib kelib kechgacha yashash huquqini qo‘lga kiritdinglar, xolos. Keyingi hayotingni esa, kechqurungi yugurish hal qiladi”¹². Ya‘ni bu gaplarda hayot falsafasi, o‘zbekona hayot tarzi aks etgan. Inson yugurib-elib yashaydi, qay manzilga ketayotganligini o‘zi ham bilmay qarorlar qabul qiladi. Qachon yiqilib, qaysi tarafdin o‘q eyishini ham bilmaydi. Hayot kutilmagan va og‘ir sinovlari bilan insonlarga Todddan ham katta “dushman” ekanligi haqida fikr yuritish mumkin.

¹² Исажон Султон. Озод. –Т., Шарк, 2012. 377-бет.

Toddning asarning bosh qahramoniga munosabati yaxshi bo‘ladi. Bunga sabab Mamasidiq pishiqning dalada o‘rib pishgan bo‘lganidan u bergan barcha sinovlarga bardosh bera olgan ekanligi aytib o‘tiladi.

“Sendan chempion chiqishi mumkin edi, afsuski, nemis emassan”¹³, deyish bilan ham cheklanmasdan, goh bir bo‘lak non yoki sho‘rvasiga bir bo‘lak go‘sht qo‘shirish orqali mehribonchilik qilganligidan bosh qahramon uning hurmatiga sazovor bo‘lganligini anglash mumkin. Ya’ni asar qahramoni o‘zining harakatchanligi va mehnatkashligi bilan dushmanning ham hurmatiga, e’tirofiga sazovor bo‘lganligi xususida so‘z bormoqda.

Mamasidiq pishiq qirq to‘rtinchi yilda Polsha ozod qilinganda ozodlikka chiqadi, lekin uyiga qayta olmaydi, endi bu xil asirlarni nemislarga xizmat qilganlikda ayblab o‘zinkilar qiynashadi. Oradan to‘qqiz yil o‘tgach, Stalin vafotidan so‘nggina u o‘z uyiga, oilasi oldiga qaytadi.

Qaytgach, birinchi qilgan ishi yo‘q bo‘lib ketgan uyi joylashgan do‘ng yoniga kapa tikib, qaytadan paxsa urib uy qurishi bo‘ladi. So‘ng bolalarini qaytarib olib, boshqa bir ayolga uylanib, 11 ta farzandli bo‘lishi, shu farzandlarining hammasini uyli-joyli qilish uchun bir umr mehnat qilishi va kutilmaganda vafot etishi bilan hayotiga yakun yasalishi voqealari xususida so‘z boradi.

Asar bosh qahramoni bir umr yugurib yashaydi, ya’ni o‘g‘lining tilidan aytganda uni o‘sha nemis zobiti bo‘lgan Todd bir umr ta’qib qilgandek yashagan. O‘n bir farzandni uyli-joyli qilish uchun ko‘proq pul topish maqsadida zaharli joylarda ishlaydi, mol semirtirib sotadi, tomorqaga ekin ekib sotib, ro‘zg‘or tebratadi. Farzandlarga ham otasining mehnatkashligi o‘tgan, ular ham tinim bilmay mehnat qilishadi va bu holga o‘rganib qolishgan. Hammalari bir-biriga mehr-oqibatli va inoq bo‘lib yashashadi. Bir-biriga o‘gay ekanligi ham deyarli bilinmaydi.

Farzandlar ham Mamasidiq pishiqning davomchilari sifatida aks ettirilganligidan asar etakchi g‘oyasining davomli ekanligini anglash mumkin.

¹³ Ўша китоб, 378-бет.

Ya'ni o'zbek xalqi aksar holatda bolam-chaqam deb o'z umrining qanday shiddat bo'lib o'tib, poyoniga etganligini anglamay ham qoladi. Bu holatni asar bosh qahramonining katta o'g'li hikoyasidagi gaplaridan anglash mumkin:

- Men-chi? Men ham ertani, indinni o'ylab yuguraman-elaman. Bilamanki, bugun bir daqqa tin olsam, ertaga boshqa bir muammo yo'limdan chiqadi. Tashvishim boshimdan oshib yotipti. Bu yoqda bo'lsa, umr shovullab o'tib ketyapti...

Nazarimda, bu mahv etuvchi yozuq barchamizning peshanamizga yozilganday. Xuddi ulg'aygach, hayotning o'zi Todd qiyofasida ortimizga turib olib, ta'qib qilayotganday, tahdid etayotganday...

Hech o'ylab oxiriga etolmayman: qayda u, marra? Etganlar nelarga sohib chiqadilaru etmaganlar nelardan mahrum bo'ladilar? Gapning ochig'i, mening aqlim bunaqa narsalarga etmaydi.¹⁴

Qahramonning ushbu fikrlaridan hayot falsafasining o'ziga xos ifodasini ilg'ash mumkin. Ya'ni, inson ongli ravishda yashash uchun kurashadi va bu jarayonda o'zi ham anglab etmagan allaqanday kuchga bo'ysunib, unga itoat qilib yashaydi. Uning xohio'lariga bo'ysunadi. Bu bo'ysunish zaminida o'za ko'rinmas kuchning insonlarni ta'qib etishi, harakat qilishga undashi, agar aksi bo'ladigan bo'lsa, uning hayoti o'zi xohlagan darajada bo'lmasligi mumkinligi o'ziga xos inertsiya bilan odamlarni harakatlantirishi xususida so'z boradi. Har bir insonning o'zi yo'qotadigan narsasi bo'lish, ana shu yo'qotilishni xohlamasligiga ko'ra ham ular tinimsiz harakat qilishi lozimligi aytib o'tiladi.

Asar nihoyasida muallif nutqidan "Todd" so'zining lug'aviy ma'nosiga izoh beriladi. Unga ko'ra ushbu so'z "o'lim" ma'nosini anglatar ekan. "Der Todd immer gewinnt" birikmasining ma'nosi esa "O'lim haqdir" ma'nosini anglatishidan inson hayoti oxir-oqibat o'lim bilan yakun topishi, lekin o'sha lahzagacha o'zidan biror iz qoldirishga ulgurishi zarurligi, hech bo'lmaganda asar qahramoni kabi

¹⁴ Исажон Султон. Озод. –Т., Шарк, 2012. 379-бет.

vafotidan qayg'urib, orqasidan bo'zlab qoladigan mehribon, mehnatkash, elga naf keltiruvchi solih farzandlar yoki biror xayrli ish nazarda tutiladi.

Demak, Isajon Sultonning "TODD" hikoyasi garchi ikkinchi jahon urushi mavzusidagi asar bo'lsa-da, unda insonning butun hayot tarzi haqidagi falsafasi singdirilganligini ko'rish mumkin. Ya'ni inson dushman ta'qibidan tashqarida ham ko'rinmas ta'qiblar o'ljasi bo'lib yashaydi va tahdidlar qurboni bo'lmaslik uchun tinimsiz harakat qilishga mahkum degan g'oya ilgari suriladi.

1.2. Urush mavzusidagi hikoyalar badiiyati

Isajon Sultonning urush mavzusidagi yana bir hikoyasi "Askar" deb nomlanadi. Ushbu asar ham o'zi frontda bo'lmagan, ya'ni urush fojealariga bevosita guvoh bo'lmagan yozuvchi tomonidan yozilgan bo'lib, undagi voqealar ham urush manzarasi tavsifi bilan boshlanadi.

"... Harbiy uchoqlar tinmay uchib-qo'nar edilar. Bepoyon uchish maydoni, qurollangan askarlaru uchoqlarga to'la edi. Buyruqlar betinim eshitilib turar, qo'mondonlik turdi vazifalarga mo'ljallangan bo'linmalarni tartibi bilan jangovor vazifaga yo'llamoqda edi"¹⁵. Hikoyaning bu tarzda boshlanishidan uning urush mavzusida ekanligini ilg'ash qiyin emas. Qizig'i shundaki, ushbu hikoya insoniyat tarixida bo'lib o'tgan biror bir urushni aks ettirmagan, unda noaniq va noma'lum urush o'chog'i va undagi jang tafsilotlari hikoyachi qahramon tilidan hikoya qilinadi. Hikoyachi qahramon esa askar bo'lib, u o'sha jang tafsilotlarini o'z rakursi doirasida, o'z nuqtai nazaridan hikoya qiladi.

Hikoya hikoyachi qahramon bo'lgan askar yigitning vatanparvarlik g'oyalari singdirilgan dunyoqarashi va bu dunyoqarashga va g'oyaga sobitlikka yo'g'rilgan inson, o'z Vatani uchun jonini fido qilishga tayyor va bundan zarracha ham afsuslanmaydigan kishi sifatida namoyon bo'ladigan qahramon nutqi asarning ko'tarinki pafos bilan yozilishiga asos vazifasini o'tagan.

¹⁵ Исажон Султон. Озод. –Т., Шарқ, 2012. 299-бет.

Hikoyachi qahramon bo‘lgan askar yigit hikoya boshlanishida mamlakatda nimadir ro‘y berganligi, shu sababli xavf burg‘ulari chalinib, jangovor safarbarlik boshlanganligidan darak beruvchi holat yuzaga kelganligini aytish bilan o‘zlarining bo‘linmalari harakatga kelganligini aytish bilan boshlanadi. Lekin hikoyachi qahramon tilidan aytib borilayotgan mavhum makon va mavhum zamondagi mavhum syujet aks ettirilishi bilan birga ushbu askarning ruhiy kechinmalari tavsifi syujetga nisbatan atroflicha aks ettirilgan. Xususan:

“Bu vatan shu qadar bepoyon, shu qadar ulkanki, hududlari qaerdan boshlanib, qaerda tugashini bilish qiyin. Turli-tuman yo‘llar qaylargadir olib boradi. U yoqlarda yana sonsiz-sanoqsiz vodiylar, tog‘u-adirlar bor. O‘sha oralarda ham kimlardir, bizlar kabi fuqarolar mehnat qiladilar. Barchaning mehnati shu vatanning osoyishtaligi va musaffoligiga yo‘naltirilgan. Ilmu fanning, texnologiyaning barcha yutuqlari shu maqsad uchun xizmat qiladi. Barcha tizimlar o‘z-o‘zidan ishga tushadigan qilib tartiblangan. Dushman hujum qilmasdan avval bu tizimlar farah uchun ishlayotgan edi. Minglab transport tizimi kerakli joylarga kerakli ma‘danlarni tashir, sanoqsiz fabrikalarda turli-tuman oziqlar qayta ishlanar, suvlar sharqirab oqar, atrof tinch edi. Endi hamma yoq o‘zgarib ketdi.

Olg‘a! Muqaddas Vatan uchun olg‘a!”¹⁶

Ko‘rinadiki, qahramonning fikrlari hayotning umumiy oqimini, ijtimoiy hayot tarzining umumiy manzarasini aks ettiradi. Bu tasavvur orqali yuz berajak voqelikning insoniyat uchun naqadar ayanchli oqibatlar olib kelishi his eta olishini o‘rgatadi.

Hikoyachi qahramon nutqida asosiy voqelik bo‘lgan urush lavhalari hikoyalari ham atroflicha bayon qilib boriladi. Xususan, yordamchi harbiy qismlarning katta tezlikda ishlayotganlari, ular urushda halok bo‘lgan yoki qo‘l-oyoqlari uzilgan askarlarni zudlik bilan jang maydonidan olib chiqib ketayotganlari, ularning o‘rniga zudlik bilan boshqa jangchilar kirib kelib mardonavor jangga tashlanmoqdaligi, yovni mahv etish hozircha imkonsiz bo‘lsa

¹⁶ Исажон Султон. Озод. –Т., Шарк, 2012. 303-бет.

ham, Markaz betinim ishlayotganligi, maxsus xizmat askarlari dushman askarini asir olib, undan ma'lumotlar olib bilishlariga shubha qilmasligini aytish orqali jang tafsilotlariga to'xtalgan bo'lsa, hikoya davomida ob-havo haqidagi va uning harbiy holatga ta'siri masalasiga ham to'xtalishidan bu ma'lumotlarning ham muhim ekanligiga ishorani ilg'ash mumkin.

Bunday jang va jarayon tafsilotlaridan so'ng hikoyachi qahramon yana kechinma tavsifiga o'tadi va vatan haqidagi fikrlarini ko'tarinki pafos orqali bayon qilib o'tadi:

“Bu Vatan shunchalar muqaddaski, hammamiz halok bo'lib ketsak ham u qolaveradi. Biz hech kimmiz. Vatan har narsadir. U shunchalar ulug' va muhimki, oldida hascha ham emasmiz. Biz kabi minglab askarlar hozir jangovor vazifaga yuborilyapti, yana millionlab ishchilar turdi joylarda turli vazifalarni bajarmoqdalar. U tufayli mana shu jangga kirayotganimizdan baxtiyormiz. Bizda ota-ona, farzand yo'q, vazifamiz Vatanni himoyalash. Chunki uning g'oyatda muhim bir ahamiyatni anglab etishga biz ojizmiz”. Ko'rinadiki, hikoyachi qahramon Vatan tushunchasi barcha tushunchalardan ustun ekanligini, jonfidolik u uchun bo'lishi kerakligini aytadi, lekin navbatdagi voqealar tafsilotida mazmun oldingisidan keskinroq bayon qilinadi, ya'ni jangga kirgan askarlarning aksari qaytmayoiganligi, qaytganlarining qo'rqinchli alfozda, oyoq-qo'llari uzilgan yoki erib ketgan holatda olib kelinayotganligini, keyinroq esa ommaviy qirg'in quroli ishlatilganligini, ya'ni ko'rib turgan manzarasi to'zonga aylanganligini, istehkom va qurilmalar vayron bo'lganligini, lekin ko'z ilg'amas tomondan kelayotgan askarlar hamma joyni qayta tiklashni boshlab yuborishganini aytish orqali bu holatdagi uzluksizlik va paradoksga ishora qiladi.

Kechinma tavsifi bayonida “Biz bu vatandan tashqarida mavjud bo'la olmaymiz. Undan ayri tusholmaymiz ham!”, degan shiorga o'xshash shakldagi ritorikani ham berib borish orqali ushbu g'oyaga alohida ahamiyat qaratadi. Navbatdagi kechinma tavsifida askarlar jonfido qilayotgan maslak haqida o'zgacha fikr yuritiladi:

“Har birimiz bir mahsul berganimiz holda, vatan yanada ulug’roq bir mahsul bera olgani uchun ham shundaydir. Bu erda xizmatdan og’ish yo‘q, hamma o‘z vazifasini aniq biladi, aniq bajaradi. Biz bu vazifani osmonga va tog’larga ro‘para qildik, ular bu og’ir yukni ko‘tara olmasliklarini bildirdilar, insongina elkasini tutdi degan gap u haqida aytilgandir. G‘oyat ulkan u yumushning nima ekanini to‘la anglayolmaymiz, bizning vazifamiz unga bo‘ysunish va mana u vatanning obodligi uchun fido bo‘lishdan iborat”¹⁷. Ya’ni hikoyachi qahramonning ushbu fikrlaridan insonning zimmasidagi mas’uliyatli vazifa bo‘lgan vatan uchun fidolik burchini tog’u toshlar yoki osmon ham bajarishni istamaganligini, lekin insonlar bu vazifani sidqidildan bajarishga tayyor ekanligini aytish orqali bu burchga alohida diqqat qartadi. Lekin uning fikridagi o‘zi ham anglay olmaydigan darajadagi ulkan vazifani so‘zsiz bajarishi uning askar ekanligidan ekanligi anglashiladi.

Keyingi syujet tafsilotlarida erda katta yoriq paydo qiladigan erning qimirlashi, yonishi va bundan o‘z askarlari oldingidan ham katta talofat ko‘rayotganligini aytadi.

Lekin yana bir o‘rindagi tafsilotlarda har ikki raqib tomonni ham g‘orat qiladigan allaqanday kuch paydo bo‘lganligi tafsilotlarini bayon qiladi:

“... Osmon tobora pasayib, er yuzini bosib kelmoqda. Nima ro‘y beryapti, nima? Yo‘llar yorilib-yorilibyu ketmoqda. Qurilmalar, inshootlar, fabrikalar vayron bo‘lmoqda. Juda qattiq silkinishlar ro‘y berayotir. Men maydoncha chetidagi bir yoriqqa tirmashib jon saqlayman. Balki, qiyomat qoyimdir bu!? Daryolar o‘zanlaridan otilib chiqib ketmoqda, tog’lar o‘rinlaridan siljimoqda. Yo‘q, hech qaysi dushmanning g‘orat qiluvchi kuchi bu qadar emas edi. Yana nimadir, juda mudhish nimadir ro‘y berayotir. Ana, dushman ham sarosimada, nima qilarini bilmay alanglab, turgan joyida halok bo‘lib ketyapti! Ko‘zga ko‘rinmas benihoya bir qudrat hamma narsani buzib, g‘orat qilib yubormoqda. Qaylardadir yam-yashil maydonlarda chopqillab o‘ynab yurgan kichkina

¹⁷ Исажон Султон. Озод. –Т., Шарк, 2012. 305-бет.

qizaloqlaru bolakaylar ham halok bo'lmoqdalar..."¹⁸ Keyingi tafsilotlarda birdaniga boshlangan yong'in barcha narsani olib ketayotgani aytiladi.

Lekin askarning qalb nolalari, ya'ni Vatanning g'orat bo'lishiga hech qachon yo'l qo'ymasligi, Vatan bor ekan, u borligi, u kabi son-sanoqsiz ekanligi, lekin Vatan yagonaligi u bo'lmasa, askarga ham hojat bo'lmasligi kabilarni aytish orqali osmonga murojaat qiladi. Va shundan so'ng silkinishlar to'xtaydi. Ya'ni vatan uning borligini, u kabilar uchun kerak ekanligini his etadi, uning uchun sidqidildan o'z jonidan voz kechadigan, u uchun fido bo'ladiganlar borligini his etgan chog'da oxirizamon bo'layotgan bo'lsa ham to'xtashi mumkinligi, samimiy va fidoyi insonlar, pokiza qalb sohiblari bor ekani, zamonning ham, makonning ham yo'q bo'lib ketishiga yo'l qo'ymasligi haqidagi muallifning g'oyalari asarga singdirilganligiga guvoh bo'lish mumkin.

Syujet yo'nalishi davomida endi askarga shunday bir imkoniyat berilganligiga guvoh bo'lamiz. Ya'ni askar bir istehkom ortiga yashirinib olgan dushman askariga ko'zi tushadi. Unga o'zi qilgan vayronaliklarga bir nazar solib, bular nima sababdan kerak ekanligi xususida fikr yuritishga chorlagan askarga dushman askari o'zi va sheriklarining ochlikda ozuqa axtarib kelib qolganligini, yoriq tashqarisida ular o'limga mahkum ekanliklari xususida javob qaytaradi.

Unga muqaddas vatan tushunchasi yot ekanligi, bu erlarga urchib-ko'payish uchun qulay va osuda makon izlab kelganligini, askarning jon kuydirib aytayotgan vatan haqidagi so'zlarini nafaqat tushunmasligi, balki his qilmasligini aytish orqali o'zining bir maxluq kabi yaratiq ekanligiga, ya'ni nafsining quli bo'lib yashab o'tayotganlarning tipik namunasi ekanligiga ishora qiladi. Qorin bandalari bo'lgan bunday maxluqsimonlar nafsini qondirish yo'lida turfa pastkashliklardan, vayronagarchiliklar va qotilliklardan ham aslo qaytmasligiga muallif ishora qiladi.

Dushmanning bu tarzdgagi gaplariga askarning javobida muallif ilgari surayotgan g'oya va kontseptsiyasining mag'zini kuzatish mumkin:

¹⁸ Ўша китоб, 307-бет.

“- Chunki sen vatansizsan! Shu bois ham muqaddaslik degan narsalardan bexabarsan. Mening Vatanim benihoya ulug’ bir maqsad tufayli yaratilgan. U maqsad shu qadar ulug’ki, uning oldida na sening ahamiyating bor, na mening. Biroq aynan mana shu muhoriba bois men endi tasavvuringga ham sig’mas yuksaklarga ko’tarilaman.”

“... Ha bir kun kelib olamda hech bir narsa qolmaydi quyoshlar, yulduzlar, oylar hammasi tamomila yo’q bo’lib ketadi. Jumladan, bizning Vatanimiz ham Tangri taoloning irodasi tufayli butun olamga qo’shilib betahqiq yo’qlikka yuz tutadi. Ana o’shanda, bizning butun bu xizmatlarimiz, fidokorliklarimiz yana qiymat kasb etadi.. U erishtiradigan qadru qiymatga sen hech qachon erisha olmaysan! Kirib kelishingning o’ziyoq avvalboshdan yanglish edi, shu bois ham albatta halokatga mahkumsan”¹⁹. Fidoyi askarning ushbu so’zlaridan iymon tuyg’usi ifodasini ko’rish mumkin. Ya’ni u bir kun kelib yaratganning irodasiga ko’ra oxirizamon bo’lganda, har kim o’z a’moli uchun javob berar chog’ida ularning fidokorligi o’z mukofotini olishi, dushman kabi bemaslak va imonsizlar esa jazolanishlari muqarrarligi xususida so’zlaydi.

Shu bilan har ikkalasi jangga kirib, askar dushmanni mahlub etadi, lekin o’zi ham olgan og’ir jarohati tufayli halok bo’lar chog’ida ular tomonning g’alabaga erishganinin ko’rib, xursandligidan “Ey Vatan, tuproqlaringga ko’m meni! Hatto halok bo’lgan onimda ham faqat sening quchog’ingda yotay, Vatan!”²⁰ – deyishni xohlaydi.

Vatanning naqadar muqaddas va aziz ekanligini, unng misli ko’rilmagan hududlarida tuman-tuman askarlar uning uchun jon fido qilishga shay ekanliklarini, vatan tuprog’i zra ushbu fidokorlar shon-sharafga, adolatga bemsl sadoqatlarga burkashing uchun tuproqlaring uzra qaytadan bosh ko’tarib chiqishlari, vatan esa o’z navbatida oyoqlari ostiga poyonoz bo’lib, ularning

¹⁹ Исажон Султон. Озод. –Т., Шарқ, 2012. 309-бет.

²⁰ Ўша китоб, 309-бет.

xizmatlari bo'lgina qadru qiymat qozonganligini butun olamga ma'lum qilishini aytish orqali har ikkalasi biri-biri uchun yaratilganligin uqtiradi.

“Bizlar sensiz, sen esa bizlarsiz mavjud bo‘la olmasligingni, yosh askarlar qo‘llarida bayroq bilan men tomon chopib kelishayotganini, g‘oyat aziz va xushbo‘y tuprog‘ing yaralarimizning og‘riqlarini ozaytirib, yuzimga xush yoqayotganini, saldan keyin sen uchun jonini fido qilishga hamisha tayyor eng oddiy bir askaringni quchog‘ingga olishingni mushtoqliq bilan kutmoqdaman... bir kuni... mana shu sevimli bag‘ringdan maysa kabi yana qaytadan bosh ko‘tarib chiqishim uchun... azizim mening...”²¹ Askarning ushbu so‘zlaridan uning Vatan uchun jon fido qilishiga u bilan chambarchas bog‘liq ekanligi, ya‘ni unga fido bo‘lishiga vatan ham uni ardoqlashi, uning fidokorligini unutmasligi, uni ham bag‘riga olib, qilgan yaxshiliklarini yod etib, kelajak avlodlarga etkazishiga ishonchi komil ekanligi bilan bog‘laydi. Vatan va askar tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisiz mavjud bo‘lmasligi, bu g‘oya esa olmadagi eng pokiza tuyg‘u – vatanparvarlikning mazmun-mohiyatini tashkil etishini muallif uqtirmoqchi bo‘ladi.

2011 yilda yozilgan ushbu hikoya garchi tarixda yuz bergan biror bir urush voqealariga asoslanmagan bo‘lsa-da, urush mavzusida yozilgan eng yaxshi hikoyalardan biridir. Chunki unda insoniyat tarixida yuz berishi mumkin bo‘lgan eng dahshatli urush tasavvur mahsuli sifatida aks ettirilgan. Har qanday urushda ham ezgu niyatli Vatan himoyachilari g‘olib bo‘lishlari, bosqinchilar nafsi uchun boshlagan urushlarining qurbonlariga aylanishlari g‘oyasi ilgari surilgan.

Asarning ham hikoyachi qahramoni, ham bosh qahramoni bo‘lgan askar yigit kabi vatanning fidoyi va mard farzandlari bor ekan, uning sarhadlari dushman va bosqinchilar oyoqlari ostida g‘orat bo‘lmasligi, ezgulik hamisha g‘olib ekanligi muallif tomonidan ta’kidlanadi.

²¹ Исажон Султон. Озод. –Т., Шарқ, 2012. 310-бет.

Asarda kompozitsion unsurlardan, asosan intererlardan unumli foydalanilgan. Badiiy detal sifatida esa Vatan bayrog'i, oq va qora peshonabog'larni aytib o'tish mumkin. Sarlavha esa an'anaviy bo'lib, u bosh qahramon nomidir.

Hikoyada ramziylik kuchli. Chunki unda aks etayotgan aksar tushunchalar ramziy ma'no kasb etgan. Xususan, asardagi ularning boshi uzra qulayotgan osmon – tobora bostirib kelayotgan dushmanning ustun kelayotgan vaziyati bo'lsa, er ostidan paydo bo'lgan ulkan yoriq, bu insonlarning fe'l-atvorlaridagi darz ketish, fikri buzilishi holatlari ifodasi deyish mumkin.

Isajon Sultonning “TODD” va “Askar” kabi urush mavzusidagi hikoyalardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- Muallif garchi o'zi urush tafsilotlarini o'z ko'zi bilan ko'rmagan bo'lsa-da ularni chin qalbdan his qila olgan va uning dahshatli oqibatlarini, fojealarini o'z asarlarida aks ettira olgan, kitobxonda tasavvur hosil qila olgan ijodkorlardan biridir.
- “TODD” hikoyasi qahramonining kontslager hayotidan chiqargan xulosasi o'z hayotining asosiy mazmunini tashkil etganligi, bu holat uninggina emas, farzandlarining ham taqdiriga aylanayotganligi fojeasi asarda mahorat bilan aks ettirilgan.
- “Askar” hikoyasi insoniyatning biror bir konkret urushlariga bag'ishlangan asar bo'lmasa-da, unda urushning insonlar boshiga keltiradigan dahshatlari to'laqonli aks ettirilgan. Unda fidokor askarlarning mardlig va matonati vatanning tayanchi ekanligi g'oyasi oldingi planda ko'rsatilgan.

II BOB. URUSH MAVZUSI AKS ETGAN NASRIY ASARLAR BADIYYATI

2.1. Nasriy asarlarda psixologik tasvir masalasi

Istiqlol yillarida yaratilgan urush mavzusidagi hikoyalar sirasiga Said Ahmadning “Uchinchi minora” hikoyasini kiritish mumkin. Bu hikoya sobiq ittifoq davridagi afg'on urushining mudhish oqibatlarini ko'rsatib bergan hikoya bo'lib, unda bu besamar urushning insonlar boshiga solgan jafolari aks etirilgan.

“Konflikt o'z mohiyati bilan xilma-xildir. Shunday badiiy asarlar borki, ularda sotsial va siyosiy ziddiyatlar aks ettirilib, hayotdagi boshqa ziddiyatlar esa, o'sha asosiy konfliktga bo'ysundirilgan bo'ladi.

... Ko'pchilik asarlarda xarakterlar to'qnashuvlar natijasida o'zgaradilar, shaxslar iroda yo'nalishi yangi izga tushib, yangi-yangi hatti-harakatlar paydo bo'ladi.

... Ba'zi mana shunday xatti-harakatlar ichki ziddiyatlar bilan birga olib boriladi: qahramon xarakteridagi har xil ikkilanishlar paydo bo'ladi. Buni ichki kolliziya deb ham yuritadilar”²².

Demak, konfliktning asosan, uch xil ko'rinishi mavjud ekan. Said Ahmadning hikoyalarda yuqorida sanalgan hikoyalarning ko'pchiligida konfliktning an'anaviy bo'lgan “shaxs va shaxs kurashi” shaklidan ko'ra “shaxs va jamiyat” va “shaxsning o'zi bilan o'zi kurashi” kabi shakllari ko'proq qo'llanilganligining guvohi bo'lish mumkin.

Adibning “Uchinchi minora” hikoyasi afg'on urushi mavzusida bo'lib, unda bu urushning o'zbek xalqi boshiga ham keltirgan jafolari aks ettirilgan. Chunki urushda o'zbek o'g'lonlari ham ishtirok etishib, ko'pchiligi yarador, ayrimlari nogiron bo'lib qaytishgan. Eng dahshatlisi esa afg'on urushida qatnashgan yigitlarning ko'pchiligining tanasidan qolgan qismlar temir tobutda o'z vataniga qaytgan.

²²Жамоа. Адабиёт назарияси. 2 томлик. 1-том. – Т., Фан, 1978. 224-бет.

“Uchinchi minora” hikoyasining bosh qahramoni bo‘lgan Juman boboni “Uchinchi minora” deb atashadi. Chunki Buxorodagi Minorai Kalon va Vobkent minorasidan keyin to‘qson olti yoshda bo‘lishiga qaramay, hali qaddi tik va barvasta bu insonga shu nomni munosib ko‘rishgan bo‘ladi.

Lekin bittayu bitta qizi Istatniso Toshkentda doktorlikka o‘qib yurib, o‘sha erda bir toshkentlik yigit bilan sevishib qolib, unga turmushga chiqib shu erda qolib ketadi. Lekin Juman bobo bittayu bitta qizini o‘zining qadrdon o‘rtog‘i Mutavakkilning o‘g‘liga berishga so‘z berib qo‘ygani uchun qizining “yuzsizligi”dan g‘azablangan ota u bilan yuz ko‘rmas bo‘lib ketadi.

Bu o‘rinda Said Ahmad ijodiyotiga xos ota va bola munosabatlari va ular o‘rtasidagi ziddiyat aks ettirilganligini ko‘rish mumkin.

Asarda Vardonze qal’asiga alohida ahamiyat berilgan. Uning ta’rifi quyidagicha keltiriladi:

“Buxoroi sharifga tengdosh bu qal’ani Vardon xudotlar davlati tiklagan. Bunda kimlar bo‘lmadi, nimalar bo‘lmadi? U Qutaybani ham, elakchi Torobiyni ham, jomakor safidlar etakchisi Muqannani ham, mo‘r-malahdek yopirilgan Chingizxon lashkarlarini ham, to‘p, zambaraklar sudrab kelgan shafqatsiz Frunzeni ham va nihoyat qishloqma-qishloq yurib odam otgan Quybishevni ham ko‘rgan”²³.

Ushbu minora asarda o‘tayotgan umrga, barcha tarixiy voqealarga, g‘alayonu urushlarga zid qo‘yilgan. Chunki u qimirlamay barcha jarayonlarni kuzatib turgan sokinlik ramzi bo‘lgan timsol sifatida gavdalanadi. Bu timsolning Juman ota bilan o‘xshashligi esa har ikkalasi ham ko‘pni ko‘rgan, bardoshli ekanliklarida deyish mumkin. Bundan tashqari Juman bobo qal’aga qaraganida o‘zining tashvishlari tarix g‘ildiragi oldida hech narsa emasligini anglab, shashti pasayib uyiga qaytishiga sabab bo‘ladi.

²³ Said Ahmad. Киприқда қолган тонг. – Т., Шарқ, 2008. 283-бет.

Lekin bir kuni Juman bobo uyidagi hamma narsa boshqacha ekanligini sezib yuragi g'ashlanadi. Chunki o'sha kuni qizi haqidagi mash'um xabar etib kelgan bo'ladi:

- Sizga xudo sabr-toqat bersin. Qandoq qilasiz. Dunyoning ishlari shu ekan. Bir kelmoqning bir ketmog'i ham bor, deydilar. Istatniso omonatini topshiripti.

Juman boboning boshi egildi, beli bukilib, bukilib, oxiri soqollari tizzasini qordek bosdi.

Butun olam birdan sukutda qolgandek jim-jit. Shunday jimlik cho'kdiki, bandidan uzilgan bargning erga qo'ngani ham eshitildi. Juman boboning badanidagi har bir mo'y og'ir zanjir bo'lib uni pastga tortardi²⁴...

Hikoyaning mana shu o'rni kulminatsiya bo'lib, undagi Juman boboning ruhiy holati, uning iztiroblari yozuvchi mahorati tufayli juda ta'sirli aks ettirilgan. Unda qo'llanilgan "soqollari tizzasini qordek bosdi", "bandidan uzilgan bargning erga qo'nishi", "badanidagi har bir mo'yning og'ir zanjir bo'lib pastga tortishi" kabi badiiy tasviriy ifodalarning qo'llanilganligi ushbu ruhiy holatning ta'sirchanligin yanada oshirgan. Ya'ni "Uchinchi minora"ning boshi egilib, bu ayriliqqa bardosh bera olmay nurayotgan shaklga kelishi shu holatda aks ettiriladi.

Bu hikoyada ham jamiyat va shaxslar o'rtasidagi konflikt ko'zga tashlanadi. Ya'ni Istatniso va uning umr yo'ldoshi harbiy vrach bo'lganlari uchun ikkalasini ham Afg'onistondagi urushga, yaradorlarga qarashga jo'natib yuborishgan bo'ladi. Ular besamar va ularga dahli bo'lmagan urush tufayli halok bo'lishadi. Chunki Afg'on urushining o'zbeklarga dahli bo'lmaydi. Bu fuqarolik urushida ular ortiqcha qurbonlar edilar, xolos. Totalitar tuzumning noto'g'ri siyosati oqibatida Istatniso kabilar qurbon bo'lib ketaverganlar.

Asarda minoralarga o'xshatilgan Juman boboning ham sabr-bardoshi tugagandek, bu dunyoda ortiq bir kun ham turgisi kelmayotganligi, o'z bolasiga

²⁴ Саид Аҳмад. Киприқда қолган тонг. – Т., Шарқ, 2008. 284-бет.

shafqat qilmay, uning dilini ranjitib, endi uning bu olamda yo‘qligini bilgach, umuman yashagisi kelmayotganligi tasviri qahramonning o‘z nutqi orqali aks ettirilgan.

- ... O‘z bolasini ostonadan quvgan gunohkor bandangman. Dargohingga sig‘inib keldim. Omonatingni ol! Dunyoga to‘ymagan norastalar umrini nega menga yulib berasan? Axir men yoshimni yashab bo‘ldim. Yashayverib zerikib ketdim. O‘zingdan tilab olgan yolg‘iz qizim u dunyoga mendan dili og‘rib ketdi. Bunga qandoq chidayman? Tongla mashharda unga qandoq ko‘rinaman? Endi ketay, bu yorug‘ jahonda boshqalarga bo‘shatay²⁵.

Bundagi qahramonning ruhiy holati o‘zi yashayotgan zamon bilan ziddiyatga kirishgan ota holati sifatida berilgan. Chunki yoshgina qizi va kuyovidan ayrilgan, norasida ikki bolani – nevaralarini etim ko‘rgan otaning bunga sabab bo‘lgan zamondan, tuzumdan nafratlanishi tabiiy hol. Bu jamiyat va shaxs o‘rtasidagi konfliktning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lishi mumkin.

“Inson xarakterini urush sharoiti bilan bog‘liq tarzda ko‘rsatish, hayotga, odamlarga xos xususiyatlarning badiiy ifodasini berishda tarixning bunday hal qiluvchi hodisasidan muhim vosita sifatida foydalanishga intilish bir qator asarlarida etakchi leytmotivni tashkil etadi”²⁶. Darhaqiqat, adabiyotshunos olimimiz Umrzoq O‘ljaboev domla aytganlaridek, adib qalamiga mansub ushbu hikoya urush mavzusidagi hikoyalar ichida alohida ajralib turadi. Bu hikoya front orti ijtimoiy hayot tarzi haqida ma‘lumot beruvchi, o‘sha davr kishilari xarakter-xususiyatlarini ko‘rsatuvchi asarlar sirasiga kiradi.

Adabiyotshunos olim B.Sayimov ushbu masalaga munosabat bildirgan: “Hikoyadagi o‘zgarishlarni ko‘rsatishda o‘z ijodiga xos usullardan ustalik bilan foydalanadi”²⁷ Bunda olimlar aytib maqtanayotgan yutuqlarning ko‘chiligi qisman yoki umumiy hisobda bajarilgan bo‘ladi. Ularni xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan hikoyalash usulidan foydalangan holda bayon qilishi uning xarakteriga xos

²⁵ Саид Аҳмад. Киприқда қолган тонг. – Т., Шарқ, 2008. 286-бет.

²⁶ Ўлжабоев У. Фафур Фулом./Замон талаби ва ижодкор масъуллиги. – Тошкент, 2012. 72-бет.

²⁷ Б.Сайимов. Улуғ Ватан уруши даври ўзбек адабиётининг жанр хусусиятлари. Фан, 1984. 77-бет.

sifatlardan biri bo‘lib qolgan. Yozuvchining bunday uslubdan foydalanishi qahramon tilini xalq tiliga yaqinlashtiradi. Urush mavzusidagi ushbu hikoyada shu davr kishilari ruhiyati tasviri berilishi bilan birgalikda hikoya adibning urush mavzusidagi o‘ziga xos asari sifatida e’tirof etiladi.

Urush davri deganda esa odamlarning ocharchilik, etishmovchilikdan qiynalgan holatlari chor-nochor kishilar ko‘z oldingizga keladi. Hikoyalardagi to‘kis tasvirida Juman boboning farovon va tinch hayot tarzi ko‘rsatilsa-da, hikoyaning asosida turgan voqelik urush tufayli yuz bergan fojia edi.

Hikoyada urush davridagi qiyinchiliklar u qadar aks ettirilmagan. Bu masala haqida adabiyotshunos U.O‘ljaboev fikrlarini keltirish o‘rinli deb bilamiz: “Hamma narsa joyida – asar g‘oyat qiziqish bilan o‘qiladi. Lekin ularda sharoit, urush davri hayotiga xos murakkab ruh, shu bilan bog‘liq kishilardagi favqulodda kayfiyat u qadar sezilib turmaydi”²⁸. Haqiqatan ham, urush mavzusidagi hikoyada ham urush qiyinchiliklaridan ko‘ra keksa kishining o‘y-xayollari, uning minoraday cho‘ng va mahobatli g‘ururi, farzandlari va atrofdagilar oldida yuzi yorug‘ deya hisoblashi kabilar hisodiga to‘qson olti yoshni qarshilagan bobo qizining o‘limi xabarini eshitgandan so‘ng er bilan bitta bo‘ladi. Bu holat o‘z zamonasi uchun dolzarb bo‘lganligidan yozuvchi balki shunday mavzudan foydalangandir.

Xuddi shunga o‘xshash syujet va mohiyatan uyg‘unlik O‘tkir Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasida ham uchraydi. Unga ko‘ra Umri xola nomli qariya urush tufayli o‘z farzandining tomorqasidan qulupnay olib chiqaman, deb ular o‘g‘rilar uchun qo‘ygan yuqori voltli tok simlaridan halok bo‘ladi. Ikkala hikoyada ham qariyalar obrazlari, ikkalasi ham farzandlari dardi bilan yashashadi. Faqat birining farzandi halok bo‘lgan, biriniki esa og‘ir kasalga chalingan. Biri o‘zi kechirmagan bolasining o‘zi xayoliga keltirmagan joydan, afg‘onda o‘lim topganidan iztirobga tushadi, ikkinchisi kasal bolasini o‘ylab uning dardiga malham bo‘luvchi narsa uchun katta o‘g‘lining tomorqasiga o‘g‘irlikka kirib, u ham kutmagan joydan kutilmagan o‘lim topadi. Sarlavha ham urushning

²⁸Ўша китоб, 91-бет.

so‘nggi qurboni – faqat jangda emas, o‘z uylarida halok bo‘lgan keksa ayol va o‘z yurti tinch bo‘lgan zamonda qaerlardadir bo‘lgan besamar urush tufayli halok bo‘lgan yosh jonlar. Har ikkalasining ham ayanchli o‘lim topishi kitobxonni larzaga keltiradi. Asl sababchisi urush bo‘lgan bu hikoyalar shu mavzuda yaratilgan hikoyalarning foje xarakter va mazmun kasb etgan o‘ziga xos namunalari hisoblanadi.

Qahramonlar nutqidagi o‘ziga xos jihatlar har bir personajning nutqi orqali amalga oshirilgan. Ularning o‘zaro suhbat mavzusi o‘sha davr uchun dolzarb bo‘lgan urush mavzusida bo‘lib, ba’zi hollarda qahramonlar o‘z murodiga etishi mumkin, lekin ular nutqi orqali zamon, makon va mavjud real zamonning yangiliklari bayon qilib berilgan.

“Hikoya o‘z tabiatiga ko‘ra xarakterlarni eng mayda detallarigacha tasvirlashni talab etmaydi. Xarakterning shakllanishi ham roman va povestdagidek batafsil ko‘rsatilmaydi. Aksincha, hikoyada shakllangan xarakter va tiplarning ma’lum bir momentlarigina yoritiladi”²⁹. Shu jihatlariga ko‘ra Said Ahmad hikoyalarida tayyor shakllangan xarakterlar tavsifidan tashqari ayrim xarakterlarning shakllanish jarayonidagi muhim lavhalar va psixologik tasvirlarning ham ahamiyati katta. Shunga ko‘ra adib hikoyalarining aksari o‘zbek hikoyanavisligida o‘z o‘rniga ega.

Said Ahmad hikoyalarida obrazlilik syujetga mos ravishda shakllantirilgan. Qahramonlarga alohida tavsif berib o‘tirilmasa-da, ularning nutqidan ishlangan so‘z, ibora va hikmatli jumlar orqali aniqlashtirish mumkin. Shuningdek, Said Ahmad hikoyalarida konflikt va syujet bir-biriga mutanosib aks ettirilgan. Adibning so‘nggi yillarda yozgan hikoyalarining aksarida mavjud siyosiy tuzumga begunoh jazolangan insonlar, besamar urushlar tufayli ozor chekkan insonlar taqdiri va ziddiyatlari asos sifatida talqin etiladi.

Said Ahmadning urush mavzusidagi asarlaridagi obrazlar talqini va badiiy mahorat masalasi yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

²⁹ Н.Шукуров ва бошқалар. Адабиётшунослика кириш. – Тошкент, 1979. – Б.173..

Birinchiidan, hikoyalar badiiyati o‘ziga xos tarzda bo‘lib, yozuvchi xarakterlar talqinida psixologik tasvirga alohida ahamiyat qaratadi. Bunga misol qilib, “Uchinchi minora” hikoyasidagi asosiy qahramonlarning xatti-harakatlari va gap-so‘zlarini keltirish mumkin.

Ikkinchiidan, ayrim o‘rinlarda badiiy detallarning ham o‘ziga xos ko‘rinishlari deyarli har bir hikoyada ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, “Uchinchi minora” hikoyasida psixologik yoki nutqiy detallar o‘ziga xos tarzda shakllantirilgan.

Uchinchiidan, asarlar badiiyatida muallif yoki personaj nutqining ham ahamiyati katta. Ular orqali qahramonlar xarakteri ko‘proq ochib beriladi.

Xulosa qilib aytganimizda, Said Ahmad hikoyalaridagi obrazlar talqinida badiiy mahoratning o‘rni beqiyos. “Badiiylikda adabiyotning xosiyati (spetsifikasi) mezonining birinchi maromi adabiy texnikadir”³⁰. Asar badiiyati mazmunga mutanosib, o‘rinli va yuksak saviyada talqin etilmasa, badiiy asar muvaffaqiyatga erishmaydi. Adib badiiylikning mezonlarini yaxshi o‘zlashtirganligi uchun ham uning hikoyalari o‘z muxlislarini topgan, degan fikrdamiz.

1.3. Urush mavzusidagi hikoyalarda qahramon va sharoit talqini

Urush mavzusidagi hikoyalar istiqlol davrida bu kunlarga etishish oson bo‘lmaganligini insonlarga eslatish, ularga qiyinchiliklar bilan millatimizning eng sara ziyoli qatlamining qatli omi evaziga erishilgan bugungi erkin va farovon hayotimizning qadriga etishimiz zarurligini yodga solish uchun ham ushbu mavzuga murojaat qilingan deyish mumkin.

Aynan urush voqealari emas, uning asoratlariga bag‘ishlangan hikoyalardan yana biri Erkin A‘zamning “Chapdast” hikoyasi bo‘lib, hikoya ikkinchi jahon urushidan o‘ng qo‘lsiz qaytgan Salom ismli kishining “jangda o‘qqa uchgan

³⁰ Тўйчиев Уммат. Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент. Янги аср авлоди. 2011. 28-бет..

akasining xotini, ya'inki yangasiga uylantirishlari”dan boshlanadi. Bunday urf-odat o‘zbeklar orasida azal-azaldan mavjud bo‘lib, ushbu odatdan birinchi o‘rinda yangasiga uylanayotgan yigitlar norozi bo‘lishganligi tabiiy hol. Mana shu jiddiy hayot haqiqatini ozroq yumorga qorishtirgan holda havola qilgan Erkin A‘zam aslida uning zamiridagi insonning armoni, iztirobini Salom chapdast obrazi orqali ko‘rsatib bermoqchi bo‘ladi.

Asardagi muammo, ya'ni syujetchizig'ining tuguni Salom chapdastning xotiniga aytgan quyidagi tavallosidan boshlanadi:

- Mayram boybicha, ...bo‘lmasa gap bunday – bizni endi bi-ir uylantirib qo‘ysangiz!

- Ibi, sizni bir balo urama? Falon yoshga kirib-a!

- Ho‘-o‘ bir vaqtlar o‘zing va‘da qilib eding. “Sizni uylantirmoqqa bir uylantiraman. Dunyoga kelib, siz ham axir bunday ko‘rib keting-da”, degansan. Esingdami?

- Aytgan bo‘lsam aytgandirman – til qurg‘ur suyaksiz. Lekin kelib-kelib endimi? Endi-i... xo‘p kimni olib beraylik, ayting? – deb so‘raydi kampir ham ermakka.

- Guloyni olib berasan!³¹

Bu parchadan mo‘ysafid bo‘lganida qalbining tubida yotgan armonlari xuruj qilgan qariyaning xarxashalari aks ettirilgan. U kampiriga aytayotgan gaplari hazil emasligi, keinchalik ham har kuni qiladigan xarxashalaridan ma‘lum bo‘lib boradi. Bu gapni eshitib, otasininguyiga kelgan farzandlar onasi bilan maslahatlashib, otasi o‘z holiga qo‘yilsa, bir oz vaqt o‘tib unutishiga umid qilishadi. Lekin otani battar iztirobga soladigan holat yuz beradi, ya'ni yoshi qirqlarga borib qolgan, yana ustiga tug‘ma ko‘r bo‘lgan Guloyga ketma-ket sovchilar kelib, oxiri uni “issiq-sovuq ma‘rakalarda choy tashib yuradigan pachoqdan pachoq, telbanamo bir kimsaga fotiha qilib” yuborishadi”. Salom chapdast esa alamidan guzardan ichib qaytadi va Guloy haqida rosa iddao qiladi. Asarda uning o‘limi tafsilotlari ham

³¹ Эркин Аъзам. Шовқин. – Т., Ўзбекистон, 2011.282-бет.

asar davomidagi uning va muallifning yarim hazil, yarim kinoya tarzidagi nutqida quyidagicha beriladi:

“Ko‘p o‘tmay alomat oshiq Salom chapdast eshakdan yiqilib, bir kunda o‘ldi-qoldi. “Eshagi Oftob xolaning arig‘iga toyib ketgan emish...”³²

Oftob xola Guloyning onasi bo‘lib, bu gap mazmunidan uning o‘zi yoqtirgan ayolning uyiga kelib, o‘zini yo‘qotar darajada bo‘lganidan uning arg‘iga yiqilib, o‘sha joyda armon bilan jon berganligi aytilmoqda.

Asar urush sababli armon bo‘lib qolgan orzusiga etolmay vafot etgan mo‘ysafidning halokatini hazilomuz tarzda, ya‘ni Erkin A‘zam asarlariga xos kinoyaviy tarzda aks ettirgan bo‘lsa-da, undagi asosiy mazmun o‘sha fojialarning asl sababchisi urush ekanligi g‘oyasi ilgari surilgan asar ekanligicha qoladi.

Hikoyaning yana bir o‘ziga xos jihati undagi urushda o‘ng qo‘lidan ayrilgan bo‘lsa-da, o‘zini yo‘qotmay, hayotda o‘z o‘rnini topishga intilgan, ikki qo‘lli insonlar ham eplay olmaydigan ishlarni chap qo‘li bilan bemalol uddasidan chiqar olganida ko‘rinadi. Salom chapdast nomi ham shundan kelib chiqib qo‘yilgan edi. Ushbu qahramon bir qo‘li bilan shirinliklar ham pishiradi, savdo bilan ham shug‘ullanadi, yaxni muzqaymoq qilib ham sotadi, xullas, tinimsiz harakati tufayli farzandlarini uyli-joyli qilib, o‘zlarining ham farovon yashashlarini ta‘minlay oladi. Ushbu tafsilotlar sog‘ holatida ham nimalarnidir bahona qilib, uyida ishsiz o‘tiradigan to‘rt muchchasi sog‘ insonlarga o‘rnak bo‘lar darajadagi holat deyish mumkin.

Umuman, hikoya o‘ziga xos g‘oyaviy mazmunga ega bo‘lgan asarlar sirasiga kiradi. Undagi urushning insonlar taqdiriga ta‘siri masalasi yozuvchi tomonidan Salom chapdast obrazining murakkab jihatlari orqali ochib berganligiga guvoh bo‘lish mumkin.

³² Ўша китоб, 285-бет.

2.2. Urush mavzusidagi hikoyalarda qahramon va sharoit talqini

Istiqlol davri hikoyanavisligida yozuvchi Nazar Eshonqul hikoyalari kechinma tavsifining ustunligi bilan ajralib turadi.

Nazar Eshonqul asarlarida insonning qalbi, ichki dunyosi, ruhiy olami ramz va metaforalar orqali betakror chizgilarda aks ettiriladi. Bunday ijod namunalari adabiyotimizning o‘ziga xos yangi yo‘nalishi sifatida e’tirof etilmoqda. Yozuvchining dastlab yaratgan va e’lon qilgan hikoyalardan shu davrga qadar yaratilgan asarlari ijodi shakllanishi uchun yetarli, asos bo‘ladigan darajada mazmunlidir. Bugungi kunda Nazar Eshonqul ijodini o‘rganilishiga asos bo‘ladigan ayrim asarlarni ko‘rsatib o‘taylik:

Birinchi, yozuvchi har bir hikoyani ramzli va ma’lum bir belgi kashf etuvchi sarlavha ostida boshlaydi. Chunonchi, uning “Shamolni tutib bo‘lmaydi”, “Bevaqt chalingan bong” singari hikoyalari ramzlar orqali shakllantirilgan.

Ikkinchi, yozuvchi Nazar Eshonqul asarlari ijodiy tajribalar qilish, kutilmagan holatlarni shakllantirilishiga hikoyanavislikda guvoh bo‘ldik. Nazar Eshonqul milliy istiqlol davri o‘zbek nasriga yangi ohang olib kira oldi. Uning “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasi ifodaning qabariqligi, tasvir markaziga olingan shaxs tabiatining mutlaqo kutilmagan va yangiligidan tashqari ohangning o‘zgachaligi bilan ham kishini hayratga soladi. “Nazar nasrimizni shunday ohang bilan boyitdiki, bu ohang o‘zbek millatiga xos bo‘lgan jihatlarni aks ettirish imkoniyati jihatidan tengsizdir”³³.

Uchinchi, N.Eshonqul ijodini F.Kafka ijodiga qiyoslash mumkin. Ma’lumki, F.Kafka ijod namunalari jahon adabiyoti durdonalaridan o‘rin olgan. Aytishimiz mumkinki, N.Eshonqul jahon durdonalari darajasidagi hikoyalarni yaratishga intilmoqda. Qozoqboy Yo‘ldoshevning “Yoniq so‘z” kitobida F.Kafka hikoyalari kishida qo‘rquv, hatto ayrim o‘rinlarda jirkanish tuyg‘ularini uyg‘otishi mumkinligini keltirib o‘tadi. N.Eshonqulga esa quyidagicha ta’rif beradi: “Ayrim o‘rinlarda o‘xshatishlarning sun’iyligi, hayratlarning qahramon tabiati va

³³ Qozoqboy Yo‘ldoshev. Yoniq so‘z. – T., 2006 yil.

ruhiyatidan yiroqligi kishining g'ashiga tegadi". Lekin bu holat faqat ayrim hikoyalardagi ayrim o'rinlarda kuzatilsa-da, N.Eshonqul hikoyalarining mavzulari rang-barang. "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasining sarlavhasi-da, insonni o'ylashga majbur qiladi. Xo'sh, shamol bu o'rinda qanday ramz, nimaning belgisi, qaerga ishora degan savollar tug'ilishi tabiiy. Hikoyada ko'zda tutilgan shamol – "vaqt" ramzi. Shamolni tutib, to'xtatib bo'maganidek vaqtning hisobini ham ortga qaytarib yoki o'zgartirib bo'lmaydi. Bu o'z o'rnida nimaning belgisi ekanligi. Vaqt – bu umr. Vaqt-soati yetganda inson umri tugaydi. Bu esa shamolning o'rni ma'nosiga ishora qilishi. Hikoya so'ngida shunday holatga duch kelamiz: "ko'p turganidan bo'g'in-bo'g'in bo'lib, faqat suyakning o'zi qolgan, u ham qoramtir tus olib, naq kukunga aylanish arafasiga kelgan, chorsining yirtig'iga pala-partish o'rab tashlangan o'nta odam barmog'i ham topildi".³⁴

Bu yerda barmoqlar, aynan, odam barmoqlari haqida so'z ketar ekan, ular so'zsiz – qasos, o'ch ramzidir. Barmoqlar miltiqdan o'q uzgan, insonni qiynagan, o'ldirgan va azob bergan inson Zamon Otboqarning barmoqlaridir. Bayna momo esa qasos oldi. Erining, o'g'lining, shuningdek, butun tersotaliklarning qasosini oldi. Shamol – miltiqdan otilgan o'qning ramzi hamdir. Nazar Eshonqulning ham tug'ilgan, unib-o'sgan joylari uning ruhiyati, fikrlashi, fe'l-atvoriga bir umrlik ta'sir o'tkazgan va muallif nazarda tutayotgan Tersota uning tug'ilgan vatnining nomidir. Hikoyadan xulosa sifatida shunday deyish mumkin: otilgan o'qni ham, shamolni ham to'xtatib bo'lmaydi.

Bayna momoning eri, o'g'li, Zamon otboqar kabi epizodlar ham shamol misoli juda kam hayot ko'rdilar. Bayna momo esa qasos, o'ch, qasd olami bilan yashadi. Bu qahramon tabiatan beg'ubor emas. U umri davomida bor sitamlarini, qahr-g'azablarini bor alamlari va ichki kechinmalarini ichiga yutib kelgan qahramon timsolida gavdalanadi.

Bayna momoni yaxshi xotiralar bilan eslashardi. U jiddiylilikni o'ziga o'rtoq qilib olgan edi. O'g'li va erining murdasi tepasida turgan Bayna momo madad

³⁴ Nazar Eshonqul. Yalpiz hidi.– Toshkent. 243 –bet.

izlab, uylarining tuynuklarini yopib turgan qora pardalarga bir-bir ko‘z tikdi, biroq u yerda sovuq sukutdan boshqa hech narsa ko‘rinmas, zulmatga cho‘kkan tuynuklar bu misli ko‘rilmagan qotillikni jimgina tomosha qilib turardi.

Bayna momo o‘zining qanchalar bardoshli ekanligini zamonning va Zamon otboqarning kaltaklariga baholi qudrat chidaganligi bilan namoyon qildi. O‘z-o‘zidan o‘zini, or-nomusini, diyonatini saqlab qola oldi. Og‘ir kunda qolganda ham dushmani oyog‘iga bosh urmadi.

Bayna momo shu darajada zardali ayolki, hattoki bu zardaning ta‘sirida yelkasiga bug‘doyni ortib o‘zi tegirmonga boradi. Uning bug‘doy ko‘tarib yurishidan ori kelgan Ollomurod tegirmonchi Bayna momoni insofga chaqiradi.

- Siz bunday ovora bo‘lib yurmang,- dedi u.- Biron erkakdan berib yuborsangiz, tortib, o‘zim uyingizga olib borib tashlayman.³⁵

Bayna momoning g‘ashini keltigan bu gaplar jahlini ham chiqardi.

U ba‘zida qishloqdoshlarni ochiq masxara qilardi: «E, senmisan, Salom chavandoz, xotiningning ishtonini kiyib yuribsanmi deyman»...³⁶ Bayna momoning bunday o‘zini tutishi bora-bora uni butunkay yakkalanib qolishiga sabab bo‘ldi.

Qish paytlari uchun g‘amlab qo‘yilgan o‘tini etmagan kunlari ham bo‘lardi. Shunda u ko‘rpaga oyog‘ini tiqib, xotirasiga isinib jon saqlardi. Bayna momoni hayot kaltaklari hayron qolarli darajada murakkab tabiatdli ayolga aylantirib qo‘ygan edi. Eri va o‘g‘lining o‘limi unga yigirma uch yil tinchlik bermadi. Bayna momo baribir oriyatinnig, erining, o‘g‘lining, Tersotaliklarning qasosini olishni ko‘ngliga tugib yashardi. Shunday bo‘lsa-da, Zamon otboqarning o‘limi ham Bayna momoning qalbini yumshata olmadi: uning o‘limi to‘g‘risidagi xabarni keltirishganda Bayna momo o‘z hujrasida kelinlik sandig‘i yonida cho‘kka tushgancha musibatu g‘amga ko‘milib o‘tirardi. Uning shu turishi azob-uqubatning bir to‘plam uyumiga o‘xshardi.

³⁵ Yalpiz hidi.Qissalar va hikoyalar. N.Eshonqul. – T., "Sharq", 2008. 254-bet.

³⁶ O‘sha kitob, 254-bet.

Xujraga bosh suqqan Roziya momo unga Zamon otboqarning o'limi hafqidagi xabarni etkazdi.³⁷

Ushbu suhbatdan keyin Bayna momo o'zini xalqi bilan o'rnatilajak barcha muloqot eshiklarini taqataq yopdi. Qaysi ma'nodaki, Bayna momo fikricha uni hech kim tushunmas Edi. U ana shu holatni o'zi ustidan bo'layotgan kulgu deb tushunadi. Boshqa hechkim anglashga qodir bo'lmagan o'z dunyosiga kirib ketishni afzal bilardi va shunday qildi ham. Bayna momo so'nggi nafasigacha o'z nafratiga sodiq qoldi. Bayna momo qasos olgan o'sha kun uning uchun qanday kechganini hech kim tasavvur qila olmaydi. Endi esa oradan yana yigirma yetti yil o'tdi. Jami ellik yil bo'ldi hamki, Bayna momo yolg'iz qolgandi. Umrining oxirida bu o'jar kampir baribir o'zlarinikiga ko'chib bormasligini sezgach, singlisi bilan kuyovining o'zlari ko'chib kelishdi, ammo bu paytda Bayna momo butunlay oyoqdan qolgan, faqat kun uzog'i ko'zini shiftga cho'zilib yotishga yarardi.

Qishloqqa laparlar yig'ish uchun kelgan qizlar Zamon otboqarnikidagi to'yga qo'shilib ketgan bazmga emas Bayna momonikiga kela solib, kir yuvishga tushadilar – Bayna momo yoqtirmagan ichko'ylak, ro'mol, shimlarini shundoq hammaga ko'rinadigan joyga ilib qo'yishgan edi.

Mirshablar Zamon otboqardan ayrilib qolgan xalq dardini yengillashtirish maqsadida har bir erkak bilan birma-bir suhbatlashib kelishdi va navbat yigirma uch yil ilgari Zamon otboqar tomonidan eri va o'g'li o'ldirilgan Bayna momoga keldi. Uning bu ishni qilishga jur'ati qay darajadaligi mirshablarning hayoliga ham keltirmay faqatgina Bayna momoni ko'rishgandagina bunga ishonch hosil qildilar. Ya'ni uloqlar ichida uloqdan ham kichik jussali, yuziga yillarning beshavqat muhri bosilgan hamda yolg'izlikka mahkum etilgan.

Har bir soniyaning musibatu anduhi asorati porlab turgan kichkina, jimjitday, sochlari oppoq bo'lib qolgan kampirni ko'rishgach, negadir botinisholmadi. Ular qarshilaridagi ramaqijon kampir bilan devday Zamon otboqarni qiyoslashib, o'z shubhalaridan uyalib ketishadi., chog'i indamay iziga qaytadilar. Ular, garchi,

³⁷ O'sha kitob, 256-bet.

Bayna momoni so‘roq qilganlarida ham hech narsaga erisha olmasdilar – u keyingi yillarda bir og‘iz ham gapirmagan, so‘zlar va ularning ma‘nosi uning xotirasidan chiqib ketganday yoki o‘z mohiyatini yo‘qotganday, o‘z qayg‘u va azobi bilan kunlarni zo‘rg‘a yengib yashayotgan edi. Bayna momo to‘y bo‘lmish xonadonga bugun aza bo‘layotganini zavq bilan, qutlug‘ bir vazifani bajarayotgan ma‘suldek, hamda armoni qolmagandek, 23 yil ham oilasiga ham tersotaliklarga soya solgan tosh haykal kabi qilt etmasdan tamoshabinlik qilardi, kuzatardi.

Nihoyat bu kampirning ham sitamgar kitobi o‘qib bo‘lindi – u laylatulqadr kutilayotgan oqshom yog‘och va ko‘p yillik anduhlar hidi o‘tirib qolgan, sodiq qo‘shinday ellik yilning biron kuni ham tark etilmagan g‘annok va alamli saltanati – kelinlik to‘shagida jimgina joni uzuldi – faqat o‘lishi oldidan singlisini chaqirib yigirma yildan buyon ochilmagan, oltmish yetti yil oldin teraklilik Ko‘r Safar usta yasagan, yarim vayrona sandiqqa imo qildi va bir so‘z ertasiga tushga yaqin chiqarishdi.³⁸

Hikoya so‘ngida Bayna momo chin ma‘nodagi jasur ayol, o‘zbek ayoli ekanligiga ishonch hosil qilamiz. U vafodor ayol. Eri va o‘g‘liga bo‘lgan mehri, vafosini asray bildi. Hikoyaning yakunida Zamon otboqar barmoqlarining sandiqdan chiqqani esa u chin ma‘nodagi qahramon ayol darajasiga ko‘tarildi.

Bayna momoning aynan laylatulqadr kechasi vafot etishi qaysidir ma‘noda xosiyatli hamdir. Chunki, ushbu ulug‘ kunda hamma Ollohga sig‘inib, joynomozga bosh qo‘yib, faqat shirin so‘zlarni, niyatlarni bildirayotgan tilayotgan muborak kunda bayna momo shiftga qarab o‘z umrini tugashini, shamolning esishini kutib turardi. Bu kun uning umriga nuqta qo‘ydi.

“Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasining bosh qahramoni Bayna momo “Bevaqt chalingan bong” nomli hikoyaning bosh qahramoni qorovulga tabiatan o‘xshaydi. Bayna momo ham qorovul ham hayotdan charchagan, qo‘lini yuvib qo‘ltig‘iga artgan, parvoyi falakka o‘xshasa-da qalbida qasos yashirin obrazlardir.

³⁸ Yalpiz hidi.Qissalar va hikoyalar. N.Eshonqul. – T., Sharq, 2008. 260-bet

Bayna momo eri va o'g'lini, qishloqdoshlarining qasosini olgan bo'lsa, qorovul ham onasining qiynalganini o'ylab, bir umr qiynalib kelgan vijdonining o'chini oldi. Bu qahramonlar xatolikka yo'l qo'yganlar deya olmaymiz. Sababi, ular ilojisiz qolganlar. Qasos esa qiyomatga qolmasligi kerak. N.Eshonqul bu hikoyaning bog'liqlik jihatini shunday yashiradiki, hikoyalarni bir o'qigan odam buni anglashi qiyin. Bu asos yozuvchining ulkan mahoratidan darak beradi.

Nazar Eshonqul hikolarining deyarli barchasida obrazlar shunday tasvirlanadiki, ularning hayotiy ekanligiga ishonadi kishi. Yuqorida ko'rib chiqayotgan hikoyalardan hech biri qiziqishsiz qolgani yo'q. Sababi, bu hikoyalar kichik hajmli bo'lishiga qaramay, keng qamrovli qahramonlar ruhiy olamini singdira olgan. Mana shu ruhiy olam ta'sirini his qilib o'qigan kitobxonning fikri ham faollashadi, taassurotida o'zgacha bir yangilanish holati yuz beradi. Bu esa yangi bir kitobxon qatlamini vujudga kelishiga turtki bo'ladi. Nazar Eshonqul yaratgan qahramonlarning deyarli barchasi real voqelikda harakatlanadigan hamda kundalik turmush tashvishlari bilan hamnafas insonlardir.

2.3. Personajlar talqinida mahorat masalasi

Istiqlol davrida yaratilgan urush mavzusidagi nasriy asarlardan yana biri Nazar Eshonqulning "Urush odamlari" qissasi bo'lib, ushbu qissa urushning insonlar taqdiriga ta'siri masalasi atroflicha yoritilganligi bilan ajralib turadi. Undagi etakchi qahramonlar bo'lgan Normat polvon, Anzirat Mirzaqul rais, Biyda momo kabilarning ayanchli taqdiri, ularning tinch hayotlarining azob-uqubat va iztirobli tus olishiga urush sababchi ekanligi asar syujeti vositasida ko'rsatib boriladi.

Voqealar Normat polvonning urushdan bir oyog'idan ayrilib, yarador bo'lib, to'rt yil deganda urushdan qaytib kelishidan boshlanadi. Voqealar shu darajada bo'ladiki, Anzirat urush paytidagi ocharchilik tufayli, farzandlarini qutqarish uchun Mirzaqul kabi pastkash insonning tuzog'iga tushib qoladi va eriga xiyonat qiladi. Eri qaytgach esa uning xomilador ekanligi ma'lum bo'lib qolgach, eri

tomnidan o‘lasi qilib kaltaklanadi, eri uydan ketib, Biyda ammasining uyida yashab yurganida Mirzaqul ham frontga ketadigan bo‘lib qoladi. U ketish oldidan Anziratni ko‘rib, undan kechirim so‘rash maqsadida kelgan paytida Normat polvon tomonidan har ikkalasi ham otib o‘ldiriladi.

Urush davri hayotiga bag‘ishlangan qator asarlarda tasvir o‘sha og‘ir yillarga daxldor voqealar bilan hozirgilarni bir-biridan ajratish ancha mushkul bo‘lib qolgan. “Shu ma’noda “Urush odamlari” qissasida endilikda ko‘pchilik uchun tarixga aylanib borayotgan urush davri hayotiga nisbatan muallif pozitsiyasining tiniqligi, maqsadining aniq va lo‘ndaligi, shuningdek, tasvirda izchillik ko‘zga tashlanib turishi kishini quvontiradi.

E‘tiborni jalb qiladigan ikkinchi jihat, bizningcha, yozuvchining bu asarni yaratishda hozirgi kunning talabidan kelib chiqqanligi, odamlarning bu mavzudagi asarlarga nisbatan bo‘lgan ehtiyojini e‘tiborda tutganligidadir”³⁹.

“Urush odamlari” qissasida bir ona ba‘zi bo‘layotgan ishlarga tushunmayotgan yosh o‘g‘liga qarata shunday deydi: “Odamlar alamzada-da, bolam. Urush bag‘ri tosh qib qo‘ydi hammani. Urush o‘lsin, bolam, boshimizdan g‘am arimay qoldi. Odamlar boshiga kulfat tushsa, birovdan ko‘radigan bo‘lib qoldi. Barchasiga urush sabab, bolam, urush sabab”. Muallif mazkur qissada urushning ana shu jihatini frontdan juda olisda bo‘lgan o‘zbek qishloqlaridan birida yashayotgan odamlardagi alamzadaliklar, bag‘ritoshliklar, g‘amtashvishlarni badiiy ifodalashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yganligi ma‘lum bo‘ladi.

Badiiy asarda tasvirlanayotgan har bir davrning o‘z takrorlanmas ruhi, ohanglari bo‘lishi bizga ma‘lum. Ikkinchi jahon urushi davridagi hayot esa o‘zining o‘taketgan shafqatsiz ruhi, fojiviy ohanglari bilan alohida ajralib turishi tabiiy hol. “Urush odamlari”ning boshlanishidayoq muallif asarda tasvirlanadigan voqealarga, kishilar taqdiriga mos ruhni topa olgan, hikoya qilish ohangida

³⁹ У.Ўлжабоев. Адабиёт – кўнгил кўзгуси. – Т., Турон замин зиё, 2017. 92-бет.

sovuqqonlik, ortiqcha hissiyotga berilmaslik, dangallik va lo‘ndalik, yozuvchining o‘zining ta‘biri bilan aytganda, “cho‘rtkesarlik” sezilib turadi”⁴⁰.

Bunga asardagi ayrim o‘rinlarni keltirib o‘tish mumkin, asar boshlanishi: “Qirq to‘rtinchi yil dekabrining boshlarida, qoraxat kelganidan rosa bir yildan so‘ng, yog‘in-sochinlik kunlarining birida tersotarlik Normat polvon bir oyog‘idan ayrilib urushdan qaytdi. Urushdan majruh bo‘lib qaytish odatdagi voqea bo‘lib qolgani uchun hech kim uning mayib bo‘lib qaytganligiga ajablanmadi. So‘nggi uch yil ichida urushga soppa-sog‘ ketib, biron muchasidan ajralib qaytish hodisasi tez-tez sodir bo‘lib turardi. Urush boshlangan yiliyoq Yuqori Terakdan usta Pirnazar qo‘lidan ayrilib qaytgandi. Ikki yil oldin esa Qo‘rg‘onosti qishlog‘idan mulla Turdi ko‘zidan ajralib qaytdi. Shu yilning boshida Yangiboy hisobchi qishloqqa g‘ildirakli aravada kirib keldi...”⁴¹ Xuddi shu mazmun va mohiyatni muallif asarning oxiriga qadar saqlashga harakat qiladi.

Qissaning markazida asosiy qahramonlar sifatida er-xotin Normat va Anziratning fojiali taqdiri turardi. Urushdan eson-omon qaytgan Normat polvonga keyingi hayot ham tatimaydi u o‘z uyida fojiali qismatga duch keladi. Bu qismatdan na qochib qutilishning, na unga chap berishning aslo iloji yo‘q bo‘ladi.

Hammasi Normat qaytib kelganidan so‘ng oradan ikki oycha vaqt o‘tgach boshlanadi. Aslida xiyonat ancha ilgari sodir bo‘lgan, lekin shu paytgacha sir bo‘lib kelayotgan bu ish xotinlarning “og‘iz bo‘sh”ligi sababli birdan oshkor bo‘ladi. To‘rt yil jang maydonlarida yurib, necha martalab o‘lim bilan yuzma-yuz kelib tinchlikni, osoyishta hayotni butunlay boshqacha qadrlashga o‘rgangan, “Endi xotinimni ham, meni intizorlik bilan kutib olgan odamlarni ham boshimda ko‘tarib yuraman. Bir umr ularning izzatini qilaman. Mening uchun endi urush, qon, o‘lim, degan narsalar tugadi”, deb ahd qilgan Normat polvon bu mash‘um gapni eshitib, Anziratni – bir paytlar sevib uylangan, shuncha vaqtlardan beri yuragida ardoqlab yurgan Anziratni nihoyatda qattiq kaltaklaydi, hatto o‘ldirishiga

⁴⁰ Ўша китоб, 93-бет.

⁴¹ Назар Эшонкул. Ялпиз ҳиди. –Т., Шарқ, 2008. 3-бет.

sal qoladi. Ehtimol, odamlar oraga tushmaganda o'ldirib qo'yishi ham hech gap emasdi. Normat tushgan holat – bir tomondan, nomus, uyat o'tida qovrilish, ikkinchi tomondan, frontda orttirib kelgan dard – kontuziyaning xuruj qilib qolishi bu ishning shu darajada bo'lishi muqarrarligini ko'rsatadi. Chunki o'sha holatda Normat polvon hech narsadan qaytmasligi, har qanday ishni bajarishga qodirligi seziladi.

Asarda mana shu yuqori nuqtaga chiqqunga qadar bo'lgan qahramondagi ruhiy-psixologik jarayonlarga ham e'tibor berilgan. Normat polvon qaytib kelgan kunlarda Anziratdagi qandaydir o'zgarishlarga e'tibor beradi, uning o'ziga nisbatan muomalasi o'zgarganligini, xomushligini sezadi. Bu haqda xotini Anziratdan so'raganda, undan “qoraxat” kelganligini, qishloqdagilar uni o'ldiga chiqarganini aytib, gapni boshqa yoqqa burish orqali vaziyatdan chiqib ketadi. Xotinidagi bu holat hech o'zgaravermagach, Normat polvon ikkinchi marta “Mening o'lganim chin bo'lganda “qovoq-tumshug'ing ochilib yurarmidi?” deb keskinroq gapiradi. Anzirat yana ko'z yoshi to'kadi, Normat esa o'zining qattiqroq gapirib qo'yganiga pushaymon bo'lib qoladi. Yana xotini ko'z yosh qiladi, keyin esa erkalangansimon qilib, o'zining kaklik go'shti egisi kelayotganini bildiradi.

Yozuvchi Normatning yuragidagi Anziratga nisbatan bo'lgan gumonlarini sal bo'lsa-da, yo'q qilishga, unda oldin xotiniga va bolalariga qaratilgan mehr-muhabbatini yana namoyon qilishga harakat qilganligi ko'rinadi. Bunga qahramonning kaklik ovlab qaytayotib, ko'nglidan o'tgan gaplari misol bo'la oladi: “U, shu daf'a xotini meni qanday kutib oladi, degan hadik o'tib ketganini minnatdorchilik bilan tuydi. Ko'ngil darchalarini yashnab-yashnab kelayotgan hayotga tamom lang ochib qo'ydi”⁴². Yuqoridagi holatda Normat polvonning ma'naviy holati o'ziga xos tarzda yuzaga chiqqan, bunday bunday holatni ko'rsata olish qobiliyati ko'pchilik yozuvchilarda ham uchrayvermasligi muallifning yutug'i deyish mumkin. “Urush odamlari” qissasi muallifi bosh qahramonlar talqinida ularning ma'naviy tomonini ko'proq ko'rsatishga harakat qiladi, ko'p

⁴² Назар Эшонкул. Ялпиз ҳиди. –т., Шарқ, 2008. 83-бет.

holatlarda esa bunda ifoda usuli bilan ijobiy natijalarga erishgan o‘rinlari ham anchagina. Adabiyotshunos U.O‘ljaboev ta’kidlaganidek: “Qissada qahramonlarga engillik beradigan aylanma yo‘llar, vaziyatga chap berish uchun turli sabab va bahonalar axtarib o‘tirilmaydi. Ularni imkon qadar, qanchalik og‘ir bo‘lsa-da, haqiqat bilan yuzma-yuz qilish, muhimi, shu haqiqatni qahramonlarning o‘zlariga anglatish yo‘lidan boriladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, goh pinhon, gohida esa oshkora bir fojia ohangi asarning boshidan oxirigacha uzluksiz davom etadi. Ayniqsa, bosh qahramonlar taqdiri bilan bog‘liq drammatizm tasvirini berishda boshqa vositalar bilan birgalikda, masalan, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabat tasviriga bag‘ishlangan epizodlar ham muhim badiiy vazifani o‘taydi”⁴³. Ya’ni yozuvchi bosh qahramonlar ruhiyati va turfa holatlari tasvirini ifodalashda drammatizm holatlari ifodasida kitobxonga u haqidagi batafsil ma’lumotlarni muallif va personajlar nutqi qahramonlar xatti-harakatlari orqali berishga harakat qiladi.

Uyidan arazlab ketib qolgan Normat polvon xotiniga nisbatan fikri o‘zgrargandan so‘ng yana bir sabab sifatida ammasi Biydi momoga qizi odamlarning eshigida tilanchilik qilib yurganini ko‘rganligi haqida o‘ksinib gapiradi. Uning “Hamma ularga etimga qaraganday qaraydi, xuddi otasi o‘lganday, amma!” deyishlarida qanchalar alam, iztirob borligini sezish qiyin emas.

Bunday tamoyil bilan fikrlash tragik vaziyatlarni yuzaga keltirish, qahramonlar qalb kechinmalari orqali holatni ifodalash, ularni shunday murakkab vaziyatlarda ko‘rsatish usulini muallif faqat Normat polvon obrazi orqaliga amalga oshirmasdan, buni uning xotini Anzirat obrazi talqinida ham ko‘rsatadi. Bu ayolning qilgan gunohining dahshatli yuki farzandlari gardaniga ham kelib tushadi. Xususan, uning o‘g‘li Xolmat maktabda yoki ko‘chada yurganda “buzuqning uli” degan gapni eshitadi, bolalar uni ajratadigan, yakkalaydigan bo‘lib qolishadi. Shu sababli Xolmat maktabga bormaydigan bo‘lib qoladi. Chunki unga ham onasi haqidagi yomon gaplar, haqoratlar juda yomon ta’sir qiladi. Anzirat esa bu gaplarni

⁴³ У.Ўлжабоев. Адабиёт – кўнгил кўзгуси. – Т., Турон замин зиё, 2017. 94-бет.

eshitganida “...Sildardi sharmanda qilmay opang o‘lsin...” deya o‘ziga yaratgandan o‘lim so‘raydi, bolalari oldida o‘zini oqlaydigan, o‘zini oz bo‘lsa ham sharmandalikdan olib chiqa oladigan birorta ham so‘z topa olmaydi. Onasi bilan o‘g‘li o‘rtasidagi gap-so‘zlardan o‘ziga yarasha mazmun-mohiyatni, psixologik tasvirni har qanday o‘quvchi seza oladi. Shunday tasvirlardan birida yumush bilan chiqib ketgan Xolmat oradan ko‘p o‘tmay halloslaganicha qaytib keladi. Ketma-ket Ne‘mat uzun deganining xotini kirib, “Hali quturib qoldingmi, sen etimcha”, deya uni xivich bilan savalay ketadi. O‘zi bir ahvolda bo‘lgan Anzirat Xolmatni himoya qilib, nima bo‘lganini so‘raganida, “Onasi buzuq” degani uchun qo‘shning o‘g‘lini urganini Xolmat tan oladi. Qo‘shni xotin esa ochiqchasiga unga shallaqilik qiladi: “Voy, o‘rgildim, sizday enasining himoyachisidan!.. Nima, opangdi buzuqligi yolg‘onmi? Ana, opangdan so‘ra yolg‘on bo‘lsa, buzuqdi buzuq, ko‘rdi ko‘r, kardi kar deydi-da!”⁴⁴ deb bolaning oldida shunday beandisha ayblovlarni aytadi. “Shu paytgacha Anzirat o‘zini o‘g‘lining oldida orqavorotdan aytilgan gaplardan himoya qilishga urinib kelayotgan edi. Endi esa uning guvohligida o‘zining “buzuqligi” dangal yuziga aytilayotir. Ona uchun bundan dahshatliroq narsa bo‘lmasa kerak. U gapni chalg‘itishga talvasa qilib ko‘radi”⁴⁵. Ne‘mat uzunning xotini esa shallaqilikni battar avjiga chiqaradi: “Oho, hali men oppoqman ham dersiz, hali bolani ham sen tug‘ding dersiz? Yo‘q, nega ham g‘arlik qilib, ham baland kelasan... – U birdan sensiray boshladi. – Bolani men emas, sen tug‘gansan, buzuqlikni sen qilgansan, yana bolangdi ham buzasan, birovlaridi ur, deb o‘rgatgansan! O‘ynash orttirib, qishloqni sharmanda qilganing etmaganday bolangni ham bosmachilikka o‘rgatasan, senga kim qo‘yibdi gapirishdi... Oldin etagingdagi dog‘ni yuvib ol. Keyin gapirasan, tillaringdi tiyib tur, katta bo‘lsa bulardiyam o‘ynashlikka o‘rgatasan!”⁴⁶. asardagi bu o‘rinda shunday vaziyat hosil bo‘ladiki, undan o‘zini himoya qiladigan biror gap-so‘z aytishning endi iloji yo‘q. Bu xotinning andishasiz, behayo gaplari hali kaltaklar

⁴⁴ Назар Эшонкул. Ялпиз хиди. –Т., Шарқ, 2008. 84-бет.

⁴⁵ У.Ўлжабоев. Адабиёт – кўнгил кўзгуси. – Т., Турон замин зиё, 2017. 96-бет.

⁴⁶ Назар Эшонкул. Ялпиз хиди. –Т., Шарқ, 2008. 85-бет.

zarbidan o‘ziga kelolmagan Anziratni er bilan bitta qiladi, o‘g‘li oldida butun toat-ibodatini yo‘qqa chiqaradi. Mana uning natijasi:

- “Bas qiling! – Telbaday o‘kirib o‘rnidan turdi Anzirat. Unga oxirgi gap juda o‘tib ketgan, u dag’-dag’ titrar edi. Ko‘zlaridan yosh quyilib oqar, lekin artishni xayoliga ham keltirmasdi. – Bas qiling, hozir chopib tashlayman! – U pechka oldida turgan boltaga tashlandi. – Chopib tashlayman... jonimdan to‘yib ketdim”⁴⁷. Mana shu dahshatli lavhadan har qanday kitobxon ta’sirlanadi, Anziratning qalbida ro‘y berayotgan iztirobni his eta oladi. Uning bu holatga tushishiga elning va farzandlarining oldida yuzi shuvut bo‘lishiga asosiy sabachi urush ekanligin ich-ichidan his qilish mumkin.

Anzirat o‘sha xotinni bolta bilan quvib solgandan keyin, xonani ichidan yoyopib, o‘zini pechkaning oldidagi po‘stakka tashlab ho‘ngrab-ho‘ngrab yig‘laydi. Bu ham uning o‘zining yog‘iga o‘zi qovrilishi, iztiroblarining ifodasi sifatida tasvirlanadi.

Asarning bosh qahramonlarining harakat va holatlari faqat iztirob vaziyatida emas, ba‘zan oddiy hayot tarzi orqali ham tasvirlanadi. Bunday tasvirlar berilgan o‘rinlarda qahramonlardagi kechinmalar holati har xil holatlarda ko‘zga tashlanadi. Xususan, Normat polvon xotinini o‘lasi qilib kaltaklagandan keyin Biydi momoning kichik o‘g‘lining bo‘shab qolgan uyida kampirning taklifiga ko‘ra yashab yuradi, ancha vaqt ko‘chaga chiqmay qo‘yadi. Keyinchalik ov bahona qishloqma-qishloq aylanib yurib, shu yo‘l bilan o‘z dardini engillatmoqchi bo‘ladi. Shu aylanishlarida har xil odamlar bilan uchrashadi, har xil mishmishlarni eshitadi. Ular orasida har xil gaplar bor edi. Ushbu gaplar uning fikrlarini o‘z oilasiga nisbatan ham salbiy, ham ijobiy tarafga o‘zgartirishga qodir edi. Kunlardan bir kuni u Mallaboy ismli kishi bilan uchrashib qoladi. Mallaboyning o‘z hayotini hikoya qilib berishgi “Urush odamlari” qissasidagi qistirma epizod hisoblanadi. Mallaboy aka hikoyasi Normat polvonga o‘zgacha ta’sir qiladi, undagi chalkash o‘ylarini bir erga jamlab, bir qarorga kelishiga saba bo‘ladi. Mallaboy aka o‘zining

⁴⁷ Ўша китоб,

judayam chalkash oilaviy hayotini soʻzlab beradi. Maʼlum boʻlishicha, u urushga ketganda xotini toʻrt bolani boqa olmay qiynalib qolib, nochor ahvolda jon saqlab qolish uchun bir hisobchiga turmushga chiqishga majbur boʻladi, frontdan qaytib kelib xotinining bu ishidan gʻazablangani, har xil oʻylarga borgani, lekin bolalarini oʻylab kutilmagan qarorga kelgani, hisobchikiga borib xotinini uyiga qaytarib olib kelgani, bechora ayol bunday ishi uchun oʻzini kechirolmasdan, adoyi tamom boʻlib, oʻlib ketgani haqidagi hikoyasi bilan goʻyo Normat polvonni nimalardandir ogohlantirayotgandek boʻladi. “Normat oʻzinikiga oʻxshab ketadigan bu odamning qismatida negadir oʻz taqdirini koʻradi. Bu oʻxshash tuygʻu bolalarini koʻrgandayoq boshlangan, endi koʻksini lovillatib kuydiradi. Mallaboyning oʻzidek sodda, koʻrimsiz, muloyim hukmi uning balandparvoz xayollarini parchinlab tashlaydi. Bu hukm garchi boshqa bir paytda qaror topgan taomil mezoniga muvofiq kelmasa-da, shu tobda adolatli va insonparvar edi. Ana shu insonparvarligi Normatning shu vaqtgacha sigʻinib kelgan nomus, oriyat, shaʼn va gʻurur degan tushunchalaridan ustunroq edi”⁴⁸. Oʻzi eshitgan murakkab va oʻziga xos taqdir hikoyasi asarning etakchi qahramoniga oʻzgacha taʼsir koʻrsatadi va “ertasiga Mallaboy bilan xayrlashmay ham tong qorongʻisida chiqib ketdi. Qishloqqa qaytdi-yu, martning adogʻigacha ovga chiqmadi. Oʻn besh kunlar oʻtgandan keyin kechga yaqin Biydi momonikiga kirib bordi. U hammasini oʻylab, taroziga solib koʻrgan va qatʼiy qarorga kelgan edi”⁴⁹. Lekin asar qahramonining qarori sustkashlik bilan amalga oshirilmogʻda, yaʼni oʻsha zahoti emas, balki oradan yarim oylar vaqtni oʻtkazib keyin maslahatga borishi, oʻzining taqdiriga birovlarini aralashishlariga yoʻl qoʻyishi, uning zaif tomonlarini ham koʻrsatgan.

Qissada Anzirat obrazi ham murakkab ruhiy holatlar ifodasi bilan kitobxon eʼtiborini doim oʻzida tutib turadi. U eri tomonidan qattiq kaltaklangan boʻlishiga qaramay, Normat polvon haqida yomon gap aytmaydi, eri haqida faqat yaxshi

⁴⁸ Назар Эшонкул. Ялпиз ҳиди. –Т., Шарқ, 2008. 87-бет.

⁴⁹ Назар Эшонкул. Ялпиз ҳиди. –Т., Шарқ, 2008. 88-бет.

gaplar gapiradi, uning oldida o‘zini gunohkor deb biladi. Shu sababli bu ayolning ma’naviy dunyosini o‘ziga xos shaklda ko‘ramiz. Biz ham o‘rni kelganda undan nafratlanamiz, goh esa unga rahmimiz keladi. Uning eriga xiyonatini nochorlikdan, noilojlikdan, xalq boshiga urush keltirgan behudud azob-uqibatlar sababli yuzaga kelganligini bilib turamiz.

Yozuvchi Anziratdagi gunohning asl sababi – qizi Hojarning oddiy shamollash tufayli o‘lim holatiga kelib qolishi va uning tirik qolishining birdan-bir yo‘li sifatida ovuq go‘shriga pishirilgan sho‘rvani ichirish ekanligini asosiy vosita qilib keltirish orqali asardagi noilojlik holatini tavsiflaydi. Shu orqali Anzirat Mirzaqul qo‘ygan tuzoqqa ilingani o‘zi ham bilmay qoladi. Yozuvchi bunday sabablardan tashqari bunday gunohkorlikka sababni qahramonning o‘zining ichki kechinmalari va murakkab tuyg‘ular olamidani ham ko‘rsatishga urinadi. Ya’ni Anziratning ichki olamida kitobxon oldin kuzatmagan yangi jihatlar ham ko‘rina boshlaydi. Xususan, uning ichki olamida o‘zining ayol ekanligini eslatib turadigan, buni yuqori qo‘yadigan hislar ham borligi ko‘rsatib o‘tilgan o‘rinlar ham mavjud. “Uning eri ketgandan keyingi hayoti daryoning shu beti – o‘lim, ocharchilik soya tashlab turgan allanechuk serkulfat qirg‘oq edi. Bu qirg‘oqda u o‘lib ketishi, butun orzu-umidlaridan ayrilishi, ikki bola bilan yosh, suluv bo‘la turib, beva qolishi (u hammadan ham shu narsadan qo‘rqardi) mumkin edi. U o‘zining baxtiga o‘zi zomin bo‘lishni istamaydi. U hamma ayollarga o‘xshab, yaxshi yashashni, turmushi farovon bo‘lishini, hayotda hech narsaning tashvishini tortmay yashashni istar edi. U hamma go‘zal ayollar kabi o‘z go‘zalligini bilar, bilgani uchun ham o‘zining hayotda siqilib yashashi mumkin emasday tuyular, orzu-umidi ham shunga yarasha edi”⁵⁰.

Asardagi Mirzaqulning hiylasi va zo‘rligi bilan sodir bo‘lgan xiyonatdan so‘ng, dastlab Anziratning “voqea qanday sodir bo‘lganini anglay olmay garangsirab” yurishi, har narsadan cho‘chiyverib tentak bo‘layozgani va bularning hammasining natijasi sifatida yigirma to‘qqiz yoshida sochiga oq tushgani; keyin

⁵⁰ Назар Эшонкул. Ялпиз ҳиди. –т., Шарқ, 2008. 56-бет.

esa gunohining kechirilmasligini anglab etgach, taqdiriga tan berib, bu ishni davom ettirishga endi o‘zi ro‘yxushlik berishi, bunda eridan qoraxat olganining ham ta’siri bo‘lgani va nihoyat, “Endi qanday qilib bo‘lsa ham yashasa bo‘ldi, qiynalmasa bo‘ldi”, degan qarorga kelgani va h.k. “Qahramon qiyofasidagi bunday ruhiy o‘zgarishlar to‘lqini uni shunday bir nuqtaga olib keladi, o‘zining oldingi holatidan shunchalik uzoqlashadiki, endi u, hatto o‘zi uchun ham xuddi begonadek, boshqa birovga o‘xshab qolgandek tuyuladi. Kundan-kun bu tuyg‘uning salmog‘i oshib, vujudidagi mavqe kuchayib boraveradi”⁵¹.

Anzirat xarakteri talqinidagi o‘zgarishlar asar davomida ketma-ket ifodalab boriladi. Ya’ni urushdan qaytib kelgan bir vaqtlar o‘zi yaxshi ko‘rib tumush qurgan erining xatti-harakatlarini endi boshqacharoq qabul qiladigan bo‘lib qoladi. Normatning sokinligi, “deyarli hech nima bo‘lmagandek, sezmagandek u bilan dam qaynoq, dam jiddiy muomala” qilishi unga yoqmaydi. Erining bolalari bilan andarmon bo‘lishi, ularning esa otalari bilan ko‘proq bog‘lanib qolayotganligi Anziratga yoqinqiramay boraveradi.

Asarda Normat polvonning holati ifodasida ham o‘ziga xos jihatlar, xususan, xotiniga nisbatan kechirimli bo‘lish holatiga kelgan chog‘ida Biydi momoga murojaat qilishi yozuvchi tomonidan uning bu qarorining chippakka chiqishiga sabab bo‘luvchi bir vaziyatni yuzaga keltirganligi ham asarning fojeali echimga tomon yo‘naltirilishiga sabab bo‘lgan deyish mumkin. Mallaboy akanikidan kelib, Biydi momoga “Men bolalarimni tirik etim bo‘p qolishini istamayman...”, “Kelingiz adashgan bo‘lsa o‘zidan ko‘rsin! Xudodan topsin... biroq bolalarda nima ayb?”, “Hamma ularga xuddi etimga qaraganday qaraydi, xuddi otasi o‘lganday, amma!” deyishlarida qandaydir “bo‘shashish”ga, vaziyatni yumshatishga moyillik borligi seziladi. Lekin ammasi Biydi momoning alam, dard, chuqur iztiroblar bilan aytilayotgan uning bu gaplarini “xotinsirash” deb tushunishi, yana buning ustiga hamiyatiga tegadigan og‘ir gaplar aytishi Normat polvonni yana asabiylashib, yomon tomonga qarab ketishiga sabab bo‘ladi. “Mana

⁵¹ У. Ўлжабоев. Адабиёт – кўнги́л кўзгуси. – Т., Турон замин зиё, 2017. 97-бет.

shu tarzda asardagi qahramonlarni fojidan saqlab qolishi, hech bo‘lmasa unga xalaqit berishi, chalg‘itishi mumkin bo‘lgan hayotiy ilinjlar birin-ketin yo‘q bo‘la boradi. Bu o‘z navbatida qissadagi tragik natijaning tobora yaqinlashayotganidan va uning muqarrarligidan dalolat beradi”⁵².

“Urush odamlari” asarida Normat polvon va Anziratning noravo taqdiri dahshatli yakun topishi o‘quvchiga noodatiy hol bo‘lib tuyulmaydi. Chunki shunday bo‘lishini kitobxon oldindan asarning ruhidan, voqealarning mantiqiy oqimidan anglab kelgan bo‘ladi. Bunday xulosaga kelishi uchun qahramonlar talqinidagi voqealar va holatlar ifodasi etarli darajada edi. Xususan, Normat polvonga o‘xshagan fe‘ldagi kishilar bunday ish uchun hech qachon kechirmasligini, kechira olmasligini kitobxon ham, hatto Anziratning o‘zi ham yaxshi his etadi. “Nazarimizda, qissada Normat polvonning fe‘l-atvoridan tashqari uning ovga qiziqishi, doim o‘zi bilan birga miltiq olib yurishi bejiz aytilmaydi, eslatilmaydi, shekilli. O‘sha miltiq nihoyat o‘z vazifasini bajaradi – Normat polvon jonidan ortiq suyadigan Anziratni o‘z qo‘li bilan otadi”⁵³. Asar oxirlarida bu asarda Normat polvonning salbiy xatti-harakatlariga katalizator vazifasini bajarib yurgan Biydi momoning “Xotinjonningni o‘ynashi keldi...” degan xabari bilan Normat polvon uyiga vajohat bilan etib keladi, va o‘z uyida o‘zining eski raqibi, oldin ham xotinigga boshqacha ko‘z bilan qarab yuradigan Mirzaqulni ko‘radi. Normat uchun shuning o‘zi kifoya edi. Butun asar davomida pishib, etilib kelayotgan fojia birpasda yuzaga keladi. Bunday asar echimi bo‘la oladigan holatni Normat polvon amalga oshiradi. Butun nafratini, yuragidagi qat-qat armonlarini jamlab, Mirzaqulga bir-ikki og‘iz so‘z aytadi va miltig‘ining qo‘ndog‘i bilan uni urib yiqitadi. So‘ng tasvir shunday davom etadi: “Anzirat Normatga qo‘rquv bilan tikilib orqaga tislendi. Biroq Normatning ko‘zidagi yovvoyi bir nazarni anglab, birdan taqdiriga tan berdi, ko‘zini erga qadagancha o‘tirib qoldi.

⁵² У.Ўлжабоев. Адабиёт – кўнгил кўзгуси. – Т., Турон замин зиё, 2017. 98-бет.

⁵³ У.Ўлжабоев. Адабиёт – кўнгил кўзгуси. – Т., Турон замин зиё, 2017. 98-бет.

Normat uning oldiga borib, loy va balchiqqa belangan qo‘li bilan uning iyagidan ko‘tardi.

– Seni yana kechirmoqchi ham bo‘pman-a! – dedi u alam bilan bosh saraklatib quturgan ohangda. – Ha, mayli , depman-a! Mayli adashibdi, deb kechirmoqchi ham bo‘pman-a! Qanjiq, meni harom...ing bilan bulg‘agan ekansanda. Meni manavi haromtomoq hezalakka almashtirmoqchi ekansanda... Qanjiq...” Ushbu gaplarda hayoti ostin-ustun bo‘lgan insonning alam va iztiroblari, afsus va nadomatlari mujassamlashgani sezilib turadi.

“Yozuvchi Normatning mana shu murakkab holatdagi eng so‘nggi harakatini psixologik jihatdan ishonarli, aniq berishga muvaffaq bo‘lgan. Shu daqiqada nogahon urushda ko‘rgan bir voqea – fashistlar ko‘z oldida xotinini zo‘rlab o‘ldirgan dehqonning jinni bo‘lib qolgani esiga tushadi. Uning nazarida hayotdagi eng yaramas va eng razil odamlar fashistlar bo‘lgan. Hozir ro‘parasida turganlar xuddi o‘shalarga o‘xshab ko‘ziga ko‘rinib ketadi”⁵⁴. Mana shularni xayoliga keltirgan Normat polvonning ko‘zi qonga to‘ladi. “U nafrat va jirkanch aralash to‘rt yildan beri butun vujudini bulg‘ab yotgan manfur so‘zni aytdi. – Fashist! – dedi yarim xirillab va bu so‘z tig‘ kabi ko‘ksini tilimlab tashladi. – Fashist... sizlar fashistsizlar! – alam aralash shivirladi. Yana nimalardir degisi, yuragini to‘ldirib turgan xo‘rlik va nafratni yana boshqa yomonroq so‘z bilan ifodalagisi keldi. Biroq, bilgan so‘zlarining ichidan u bundan ham qabih so‘z topa olmadi. – Fashistlar! – dedi u horg‘in, lekin keskin va hirqiroq tovushda. So‘ng miyasida chaqnagan o‘tdan seskanib ketib, ko‘zi tiniy boshladi. Ko‘z oldida tuman paydo bo‘ldi. Tuman tarqab, u o‘zini otmoqchi bo‘lib kelayotgan sonsiz dushman askarlarini ko‘rdi, qulog‘i ostida yana o‘q ovozlari, portlashlar eshitila boshladi. Tahqirlangan qalbida jirkanch tuydi, labining ikki chekkasida ko‘pik izlari ko‘rindi. U sog‘ oyog‘ining ustiga qo‘yib miltiqni o‘qladi”⁵⁵. Normatning odam o‘ldirishiga birgina xotinining xiyonati emas, balki urushdagi o‘z ko‘zi bilan

⁵⁴ У.Ўлжабоев. Адабиёт – кўнгил кўзгуси. – Т., Турон замин зиё, 2017. 98-бет.

⁵⁵ Назар Эшонкул. Ялпиз хиди. –Т., Шарқ, 2008. 111-бет.

ko‘rgan dahshatli voqealiklar va miyasidagi kontuziya holati ham sabab bo‘lganligi yozuvchi tomonidan yuqoridagi prcha orqali ko‘rsatib beriladi.

Xolmat otgan birinchi o‘q bu fojealarning asoschisi Mirzaqulga yo‘naltiriladi. Mazkur fojida uning katta hissasi bor ekanligini yaxshi bilganimiz, butun voqealar rivoji davomida unga nafratimiz to‘planib kelgani sababli Mirzaqulning o‘lim oldidagi talvasalari, aytgan so‘zlari u qadar achinish uyg‘otmaydi. Anziratga esa o‘lim oldi holati o‘zi qilgan ishining natijasini ko‘rish, so‘nggi marta yana bir bor his qilish uchun imkon beradi. “Varanglab otilgan o‘qdan Anzirat cho‘chib tushib, unga dahshat aralash ko‘zlari kosasidan chiqqudek, baqrayib qaradi”, deyiladi u haqda. Shundan so‘ng bunday fojiaga olib kelgan xiyonatning yukini elkasida, yuragida ko‘tarib kelgan, endi esa unga shu yo‘sinda yakun yasayotgan Normatning holatiga aks ettiriladi: “Normat Mirzaqulning jon talvasasida ihrab, tipirchilashini kuzatarkan, ko‘nglining bir chekkasida yovvoyi xushnudlik uyg‘ondi, miltiqni mahkam qisgancha, ko‘zlari qizarib, uzoq yugurib, birdan to‘xtagan bo‘ri kabi hansirar edi, shu turishi raqibini tilka-pora qilib tashlagan va yana tilka-pora qilishga tayyor turgan o‘zining million yillar oldingi yovvoyi avlodlariga juda o‘xshar edi. Avzoyi vahimali tusga kirgan, chakka tomirlari bo‘rtib chiqqan, og‘zining ikki chekkasida sarg‘ish, quyuc ko‘pik ko‘pirayotgan edi. Saldan keyin uning ko‘zi na miltiq ovozidan uyg‘onib, yuk taxmoni orqasida qo‘rqib yig‘layotgan Xolmat bilan Hojarni, na ko‘zlari allaqachon so‘nib qolgan Mirzaqulni, na o‘ziga qo‘rquv bilan g‘ujanak bo‘lib tikilib turgan xotinini ko‘rardi. U allaqachon o‘zini urushdaman deb hisoblar va faqat qanday otishnigina o‘ylar, butun vujudi qalt-qalt titray boshlagan edi. U xotiniga qo‘zichoqni ko‘rgan och bo‘ridek yirtqich nazar bilan qaradi-da, qah-qah urib kulib yubordi. To‘xtab-to‘xtab uzoq kuldi. Uning bu kulgusi sog‘lom odamning kulgusi emas edi, vahshiyona yirtqichning bo‘kirishiga o‘xshar edi. Saldan keyin qishloq sukunatini buzib ikkinchi o‘q otiladi”⁵⁶. Ushbu parchadagi asar qahramonlarning har bir harakat va holati – Anziratning erining ko‘zlarida

⁵⁶ Назар Эшонкул. Ялпиз ҳиди. –т., Шарқ, 2008. 111-бет.

najot uchqunini ko'rmay, taqdirga tan berishi ham, Normatning xayolida ro'parasidagi turgan odamlarning fashistlar bilan aralash-quralash bo'lib ketishi ham, nihoyat tiz cho'kib miltiq o'qlashi ham g'oyat tabiiy chiqqan. Natijada, qissani o'qigan o'quvchi xayolidan, shunday bo'lishi kerak edi, degan fikr beixtiyor o'tadi. Buning hammasi asardagi tasvirning izchilligidan, ichki mantiqning asoslanganligidan darak beradi. "Normat tomonidan uzilgan o'q bu qissadagi davom etib kelayotgan tragediyaga qo'yilgan so'nggi shafqatsiz nuqta edi. Bu o'q Mirzaqul va Anziratgagina emas, ayni chog'da Normatning o'ziga ham, u boshliq butun xonadonga, oilaga qarata uzilgan o'q ham edi. Frontdan juda olislarda – Tersota qishlog'ida otilgan bu o'q ovozi, garchi miltiq Normat polvon qo'li bilan otilgan bo'lsa-da, xalqimiz boshiga shuncha g'am-musibat keltirayotgan uzoq-uzoqlardagi dushman o'qlari ovozigacha qo'shilib ketgandek, uning bu yoqlardagi aks-sadosidek bo'lib tuyuladi. Ikki kishining o'limi bilan tugagan butun boshli tragediyaga Normat emas, xalqimiz boshiga musibat, alamzadalik, ayriliq solgan, Mirzaqulga o'xshagan tuban shaxslarning bu sharoitdan foydalanishiga imkon bergan, Anzirat singari ayollarni ayriliq sinovlariga ro'para qilgan o'sha mash'um urush, uni boshlaganlar sababchi, degan fikr qayta-qayta xayolimizdan o'tadi"⁵⁷. Haqiqatdan ham, asardagi barcha dahshatli fojealarga, xususan, ikki odamni o'ldirib, o'zi ham qoyadan yiqilib, yoki o'zini tashlab bo'rilarga em bo'lgan Normatning ayanchli taqdiriga ham urush sababchi ekanligi asarning asosiy g'oyaviy yo'nalishini tashkil etganligi qissa davomida ko'rsatiladi.

"Urush odamlari" qissasida ham adibning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hiyasining bosh qahramoni bo'lgan Bayna momoga o'xshash tajang va qaysar kampir Biydi momo obrazi aks ettirilgan. Asarda bu obrazga oid tafsilotlar ancha keng va chuqur ifodalangan. Lekin mazkur qahramon nutqining juda beparda qilib yuborilgani, uning leksikasi har xil shallaqlari so'zlar bilan to'lib ketgani unga nisbatan kitobxonda nafrat tuyg'usini uyg'otadi. Bu kampirning Normat polvon bilan Anzirat fojiasining sodir bo'lishida asosiy ishtirokchilardan biri sifatida

⁵⁷ У.Ўлжабоев. Адабиёт – кўнги́л кўзгуси. – Т., Турон замин зиё, 2017. 98-бет.

talqin etilgan. U Anzirat haqidagi gap chiqishi zahotiy oq Tursun guj-gujni boshlab, u Normatning hovlisiga boradi, xalqni boshiga to'plab, Anziratni sharmandayu sharmisor qiladi, erining kaltaklayotgani etmagandek, boshqalarni uni toshbo'ron qilishga chaqiradi. Uning gapiga kirgan ayrimlar, hatto Anziratga qarata tosh-kesak otishadi ham. Biydi Momoning Normat polvon xonadonida hukmronlik qilishiga sabablar bor, ulardan biri – u qishloqning eng keksa qariyasi, ikkinchisi – uning Normatga yaqin qarindoshligi – ammaligi ham bor. “Shunga ko'ra u bu xonadonning oriyatiga o'zicha javoyugar. Ikkinchidan, Biydi momo – g'oyat alamzada, boshiga og'ir musibat tushgan kampir. Bir kunda, bir vaqtning o'zida ikkita o'g'ilning halok bo'lgani haqida xabar eshitadi. Demak, ko'pchilik uning ra'yiga qaraydi. Buning ustiga hammaning o'ziga yarasha dard-alami bor. Kimdan o'chini olishni bilmay yurgan, asablari g'oyat taranglashgan bir payt. Shunday bir paytda sal ishora, arzimagan bahona kifoya”⁵⁸. Biydi momoning “Hoy, odamlar, urushga ham mana shunday odamlar sabab bo'ladi. Mana shundaylarning dastidan urush kelib chiqadi. Bolalarimiz qon to'kadi, bu esa buzuqlik qip yuradi”, degan gaplari o'sha “ayrimlarga” bir bahona bo'ladi. Aytish kerakki, bu epizodda Biydi momo bilan bog'liq tasvir shu darajada ishonarli, tabiiy chiqqan. Shuningdek, bu obrazning keyingi talqinida asoslanmagan, ziddiyatli o'rinlar ko'zga tashlanadi. Xususan, bir o'rinda Normat polvonga g'amxo'r, mehribon, uning taqdiriga qayg'uruvchi odam sifatida ko'rinsa, boshqa bir o'rinda uni tushunish, dardiga sherik bo'lish o'rniga, haqorat qiladi, nafsoniyatiga og'ir tegadigan gaplar aytadi. Umuman, ushbu qahramondagi ana shu alamzadalik uning boshqa qahramonlarning fojeasiga sabachi bo'lib xizmat qilishiga asos bo'ladi.

Personajlar talqinidagi ziddiyatlar, asardagi fojining bosh sabachisi Mirzaqul obrazida ham uchraydi. Uning qallobligini, o'z maqsadiga erishish uchun juda ustalik bilan ish ko'rishini, buning uchun arqonni uzun tashlab qo'yishi uning kim ekanligini yaqqol namoyon qiladi. Uning o'ziga xos jihatlari Mirzaqulning Anziratga tovuq topib berish lavhasidagi voqealar, gap-so'zlar bilan yanada

⁵⁸ У.Ўлжабоев. Адабиёт – кўнгил кўзгуси. – Т., Турон замин зиё, 2017. 99-бет.

oydinlashadi. Mirzaqulning xotin-qizlarga o'chligi, Anzirat bilan negadir uzoq bog'lanib qolishi, Normat kelgandan so'ng ham undan ko'ngil uzolmay yurishi, nihoyat, urushga ketishdan oldin uning oldiga rozilashgani, qilgan ishlari uchun uzr so'ragani kelishiga daxldor tafsilotlar ushbu qahramon haqidagi tasavvurlarimizni yanada oydinlashtiradi. Ya'ni u ham urushdagi qiyinchilik yillarida odamlar fojeasi va og'ir ahvolidan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga uringan o'sha davr kishilarining tipik vakilidir. Uni "Ikki eshik orasi" romani qahramoni Umar zakunchi obraziga o'xshash jihatlari ham talaygina.

Yuqoridagi tahlillardan quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

- "Uchinchi minora" hikoyasi urush mavzusi talqini o'ziga xos tarzda shakllantirilgan bo'lib, yozuvchi xarakterlar talqinida psixologik tasvirga alohida ahamiyat qaratadi. Badiiy detallarning o'ziga xos ko'rinishlari, ayniqsa, psixologik yoki nutqiy detallar o'ziga xos tarzda shakllantirilgan.

- Hikoyalar badiiyatida muallif yoki personaj nutqining ham ahamiyati katta. Ular orqali qahramonlar xarakteri ko'proq ochib beriladi. Said Ahmad hikoyalaridagi asar badiiyati mazmunga mutanosib, o'rinli va yuksak saviyada talqin etilgan. Adib badiiylikning mezonlarini yaxshi o'zlashtirganligi uchun ham uning hikoyalari o'z muxlislarini topa olgan.

- Erkin A'zamning "Chapdast" hikoyasida o'ziga xos g'oyaviy mazmunga ega bo'lib, unda urushning insonlar taqdiriga ta'siri masalasi yozuvchi tomonidan Salom chapdast obrazining psixologik murakkab jihatlarni ko'rsatish orqali ochib berilgan.

- Nazar Eshonqulning urush mavzusidagi hikoyalarida obrazlar hayotiy ekanligi bilan ajralib turadi. Unda zamon va sharoit tushunchalari ham ahamiyatli ekanligi idrok etiladi. Nazar Eshonqul shu mavzudagi asarlarida yaratgan qahramonlarning deyarli barchasi real voqelikda harakatlanadigan, o'tmish hayotdagi iztirobli onlarni unutmaydigan, uning ta'siridagi insonlar sifatida yaratilganligi bilan ajralib turadi.

- Nazar Eshonqulning “Urush odamlari” qissasi urushning insonlar taqdiriga ta’siri masalasi atroflicha yoritilganligi bilan ajralib turadi. Undagi etakchi qahramonlar bo‘lgan Normat polvon, Anzirat Mirzaqul rais, Biyda momo kabilarning ayanchli taqdiri, ularning tinch hayotlarining azob-uqubat va iztirobli tus olishiga urush sababchi ekanligi asar personajlarinig psixologik holatlari, ruhiy iztiroblari va amallari orqali ochib berilgan.

Istiqlol davri o‘zbek nasrida yozilgan barcha asarlarda urushning insonlar taqdiriga ta’siri va salbiy oqibatlari xususida fikr yuritilganligi bilan ajralib turadi.

XULOSA

Istiqlol davri uzbek adiblarining nasriy asarlari, xususan, hikoyanavislik va qissanavislik mahorati o'z davrida adabiyotshunos olimlardan B.Nazarov, U.O'ljaboev, U.Normatov, Q.Yo'ldoshev, N.Rahimjonov kabi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan, ushbu ijod namunalari o'zining yuksak bahosini olgan. Lekin adiblarning urushni o'z ko'zlari bilan ko'rmagan inson sifatida o'z asarlarida ushbu mavzuni qay darajada qo'llaganligi, asarlarda qahramon ruhiyatining urush davri tasviri bilan uyg'unligi holati kabi masalalar zamonaviy dabiyotshunoslikda yana bir bor umumlashtirgan holda o'rganilishiga asos beradigan jihatlar mavjudligi mavzuni yana bir bor tadqiq etilishiga asos bo'ldi.

Istiqlol davri o'zbek adiblari urush mavzusida ham boshqalardan qolishmagan holda qalam tebratdilar. Ularning urush mavzusidagi hikoyalarini shartli ravishda ikki qismga ajratib o'rganish mumkin:

Birinchisi – adiblarning insoniyat tarixida yuz bergan urushlar bilan bog'liq voqeliklar aks etgan asarlari. Bunga Isajon Sultonning «TODD», Said Ahmadning «Uchinchi minora», O'tkir Hoshimovning «Urushning so'nggi qurboni», Erkin A'zamning «Chapdast» kabi hikoyalari va Nazar Eshonqulning «Urush odamlari» qissasini kiritish mumkin.

Ikkinchisi – noma'lum, lekin urush epizodlari aks etgan urushi mavzusidagi asarlar. Bunga Isajon Sultonning «Askar» hikoyasini kiritish mumkin.

Adiblarning urush mavzusidagi asarlarida ruhiyat tasviri etakchilik qilgan o'rinlar talaygina. Ya'ni ijodkor o'limni ham, fojeani ham kechinma tavsifi orali aks ettirish orqali o'z qahramonlarini insonlarga, ularning qalb sadolariga yaqinlashtiradi va kitobxonda ularga nisbatan mehr uyg'onishiga sabab bo'ladi. Adiblarning yuqorida sanalgan asarlari personajlarning monolog va dialoglariga asoslangan badiiy saviyasi yuqori asarlar sirasiga kiradi. Garchi ular o'ziga xos ifoda uslubida yozilgan bo'lsa-da, unda ko'tarilayotgan ijtimoiy muammolar juda

jiddiy va o‘z zamonasi uchun dolzarbdir. Yozuvchilar shunday uslublar qo‘llaganki, kitobxon urush degan baloi ofatdan nafratlanadi, urushni qoralashiga sabab bo‘ladi.

Shunday bo‘lishiga qaramay ushbu mavzu namunalari o‘rganilishda davom etishiga shubha qilmasa ham bo‘ladi.

Yuqoridagi istiqlol davri hikoyalarida urush mavzusining ishlanishi masalasidagi tadqiqot ishidan o‘ziga xos xulosalarga kelindi:

- Istiqlol davri hikoyalarida urush mavzusi yozuvchilarning tanlagan mavzusi, asarning g‘oyaviy yo‘nalishidan kelib chiqqan holda shakllantirilgan.
- Urush mavzusidagi asarlar badiiyati ushbu mavzuning mazmun-mohiyatiga mos ravishda, zamon va makon, qahramon va sharoit uyg‘unligini hisoga olgan holda talqin etilgan.
- Isajon Sultonning “TODD” va “Askar” kabi urush mavzusidagi hikoyalarida muallif garchi o‘zi urush tafsilotlarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rmagan bo‘lsa-da, ularni chin qalbdan his qila olgan va uning dahshatli oqibatlarini mahorat bilan aks ettira olgan.
- “Askar” hikoyasi insoniyat tarixida yuz bermagan urush tafsilotlarini hikoyachi qahramon ruhiyati manzaralari bilan galma-gal aks ettirgan, urushning insonlar boshiga keltiradigan dahshatlarini ko‘rsata olgan asarlardan biridir. Unda fidokor askarlarning mardligi va jasorati hal qiluvchi ahamiyat kasb etishiga alohida urg‘u berilgan.
- Said Ahmadning “Uchinchi minora” hikoyasida yozuvchi xarakterlar talqinida psixologik tasvirga alohida ahamiyat qaratgan bo‘lib, bunda qahramonning ruhiy holati tasviri va tavsifi asardagi fojeani ko‘rsatishda asos vazifasini o‘tagan.
- Erkin A‘zamning “Chapdast” hikoyasida urushning insonlar taqdiriga ta’siri masalasi Salom chapdast obrazining hayotining ayanhli yakuniga sabab bo‘lgan omil vositasida ochib berilgan.

- Nazar Eshonqulning “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasi qahramonlari hayotiy ekanligi bilan birga, ular ifodasida u harakatlanadigan sharoit tushunchasi ham ahamiyatli ekanligi aks ettirilgan.
- Adibning “Urush odamlari” qissasi urushning insonlar taqdiriga dahshatli ta’siri masalasi atroflicha yoritilganligi bilan ajralib turadi. Asardagi etakchi qahramonlar bo‘lgan Normat polvon, Anzirat Mirzaqul rais, Biyda momo kabilarning ayanchli taqdiriga urush sababchi ekanligi psixologik holatlar, ruhiy kolliziyalar ifodasi hisobiga mahorat bilan ko‘rsatilgan.

Xulosa qilib aytganda, istiqlol davri o‘zbek nasrida yozilgan barcha nasriy asarlarda psixologik tasvir masalasiga alohida urg‘u berilgan Urush mavzusidagi asarlarda qahramon va sharoit talqini masalasi ham asarlar mualliflarining diqqat markazida bo‘lganligi yuqoridagi talqinlardan anglashiladi. Tahlilga tortilgan aksar asarlarda personajlar talqinidayozuvchi mahorati asar muvaffaqiyatining garovi bo‘lgan deyish mumkin. Ushbu mavzudagi asarlar urushning insonlar taqdiriga ta’siri va salbiy oqibatlari xususida fikr yuritilganligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Shavkat Miromonovich. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. - 56 b.
2. Nazar Eshonqul. Shaftoli guli. –Toshkent, O'zbekiston, 2011-yil.
3. Nazar Eshonqul. Yalpiz hidi. – Toshkent. Sharq, 2008. -260 b.
4. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T., O‘zbekiston, 2002. - 559 b.
5. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. –T., O‘qituvchi, 1986, - 407 b.
6. Isajon Sulton. Boqiy darbadar. – T., O‘zbekiston, 2011. - 243 b.
7. Yo‘ldoshev Q. So‘z yolqini. – T., G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018. - 336-b.
8. Karimov N. va boshqalar. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. —T., O‘qituvchi, 1999. - 544 b.
9. Karimov Hakimjon. Ijod va iste’dod. G‘Adabiy portretlar. – T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1985. - 125 b.
10. Mamajonov S. G‘afur G‘ulom prozasi. –Toshkent, “Fan”, 1966. -225 b.
11. Mirzaev S. XX asr o‘zbek adabiyoti, –T., Yangi asr avlodi, 2005, - 419 b.
12. Mualliflar jamoasi. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. 1-tom. – Toshkent. Fan. 1978. - 416 b.
13. Nazarov B. G‘afur G‘ulom olami. – T., 2004. -180 b.
14. Normatov U. Etuklik. –T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1982 y, -368 b.
15. Normatov U. Etuklik. –T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1982 y, -368 b.
16. Said Ahmad. Kiprikda qolgan tong. – T., Sharq, 2008. - 320 b.
17. Said Ahmad. Tanlangan asarlar. 3 jildlik, 1-jild, – T., Sharq, 2010, -304 b.

18. To‘ychiev Ummat. O‘zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari. – Toshkent. Yangi asr avlodi. 2011. - 508 b.
19. To‘raev Damin. Yangi o‘zbek adabiyoti. – Toshkent. Fan, 2008. - 191 b.
20. O‘ljaboev U. “Xotirada chizilgan izlar”. – T., G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot, 1992. - 198 b.
21. O‘ljaboev U. Adabiyot – ko‘ngil ko‘zgusi. – T., Turon zamin ziyo, 2017, - 215 b.
22. O‘ljaboev U. Zamon talbi va ijodkor mas’ulligi. –T., O‘zbekiston, 2012.- 375 b.
23. O‘ljaboev U. Mardlik va matonat tasviri. – T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1976. - 148 b.
24. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. –T., Sharq, 2002, -254 b.
25. Xudoyberdiev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – T., O‘AJBNT, 2003. -361 b.
26. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. –T., O‘qituvchi, 1979, -367 b.
27. Hoshimov O‘. Saylanma. 2 jildlik 1-jild, –T., «Sharq» nashriyoti. 1993, - 669 b.
28. Hoshimov O‘. Saylanma. –T., G‘.G‘ulom nomidagi Nashriyot – matbaa birlashmasi, 1992, - 448 b.
29. Hoshimov O‘. O‘zbeklar. –T., G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiyot uyi, 2007, - 256 b.
30. Chernishevskiy N.G. tanlangan adabiy -tanqidiy maqolalar. – T.: O‘zdavnashr. 1956. - 408 b.
31. Sharafiddinov O. Birinchi mo‘jiza. – T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1979. - 438 b.
32. Sharafiddinov O. Iste’dod jilolari. – T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1976. - 229 b.
33. Shukurov N. va boshqalar. Adabiyotshunoslikka kirish. – T., O‘qituvchi, 1979, -230 b.

34. Erkin A'zam. Jannat o'zi qaydadir. – Toshkent. Sharq, 2007. - 270 b.
35. Erkin A'zam. Shovqin. – Toshkent. O'zbekiston, 2011. – B. 288.
36. Erkin A'zam. Ertak bilan xayrlashuv. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. – Toshkent. 2007. - 200 b.
37. Qayumov A. Akademik G'.G'ulom. – T., 2002. - 100 b.
38. Qo'shjonov M. Saylanma. Ikki jildlik. 1 jild. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1982. - 297 b.
39. www.literature.uz.
40. www.ziyouz.uz.
41. www.ziyonet.uz.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. ISTIQLOL DAVRI HIKOYALARIDA URUSH MAVZUSI TALQINI MASALASI	7
II BOB. URUSH MAVZUSI AKS ETGAN NASRIY ASARLAR BADIYATI	21
XULOSA.....	54
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	57